

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI FAKULTETI

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

Usmonov A‘zamjon

FRAZALI FE‘LLAR VA IDIOMALAR TARJIMASI

**5120201 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun taqdim etilayotgan
BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar: Norqulova Sh.

Ilmiy maslahatchi: f.f.n. katta o‘qituvchi Turdiyeva N.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi
“Tarjima nazariyasi va amaliyoti”
Kafedrasi majlisida muhokama
Qilindi va himoyaga tavsiya etildi.



Bayonnoma №_____2018–yil

Kafedra mudiri: f.f.n. Turdiyeva N. Yo.

Samarqand – 2018

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. FRAZELOGIYA TADQIQOT OBEKTI SIFATIDA	10
1.1. Frazelogiya haqida umumiy ma'lumot	10
1.2. Maqol, matal va idiomalar frazeologik birlik sifatida	18
I bob bo'yicha xulosa	24
II BOB. INGLIZ TILIDA FE'LLI IBORALAR STRUKTURASI VA QO'LLANILISH DOIRASI	26
2.1. Fe'lli iboralar va frazali fe'llarning turlari va ishlatilishi	26
2.2. Frazelogizmlarda so'zlarning birikishi va ularning tarjimasi	32
II bob bo'yicha xulosa	39
III BOB. FRAZELOGIK BIRLIKLARNING TARJIMADA BERILISHI	41
3.1. Frazelogik biriklarning tarjimada berilishi	41
3.2. Xorijiy tillardan o'zlashgan hamda hozirgi inglizabon yozuvchilari asarlarida uchraydigan frazeologik birliklar tarjimasi	54
III bob bo'yicha xulosa	62
XULOSA	64
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	66

KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, birinchi galda siyosiy va iqtisodiy muammolarning yechimini topishi lozim edi. Bunday holatda davlat ishlarini yuritishda diplomatik aloqalar, turli mamlakatlardan namunali andazalar olishi uchun yaxshi kadrlar va tajribali tilmochlar kerak edi. Shu jumladan, O'zbekiston chet davlatlar bilan xalqaro aloqalar qilmasdan turib o'z kelajagini belgilab bera olmasligini tushungan holda, o'z e'tiborini chet tillari, o'zga xalqlar ma'daniyati, san'ati, davlat tuzilishi va joylashuviga qaratdi. Shuning natijasi o'laroq, O'zbekistonda tarjimashunoslik sohasida ham juda ko'p ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar qatorida, ona tilimizni ham xalqaro tillar safiga qo'shishga harakat qilinganligi sababli, boshqa chet tillardan o'z ona tilimiz bo'lmish o'zbek tiliga va aksincha o'zbek tilidan chet tiliga bevosita, ya'ni hech bir o'zga til vositalarisiz tarjima qilish faoliyati jadal suratlar bilan rivojlanib bormoqda. Xususan, uzoq davrlardan buyon mamlakatimizda asosan yozma tarjima sohasi qo'llanilar edi. Lekin so'nggi yillarda davr talabi bilan og'zaki tarjimaning, jumladan, sinxron va ketma-ket tarjima yo'nalishi ham juda keng qo'llanilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "... tarbiya, odob-axloq soxasida "amaliy namuna" xal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Farzandlarimizga, avvalo, o'zimiz xamma soxada – vatanga, xalqqa sadoqatli bo'lishda, ilmga, kasbu xunarga mexr qo'yishda, ota-ona, jamiyat oldidagi burchimizni sidqi dildan ado etishda amaliy namuna ko'rsatishimiz kerak" [1, 331 b.]

Hozirgi globallashuv davrida xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab kundan – kunga ortib bormoqda. Shuning natijasi o'laroq, O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 2909 – sonli qarori bu borada muhim ahamiyat kasb etib, unda belgilangan chora tadbirlar zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, mazkur qarorning Oliy ta'lim tizimini

2017 – 2021 yillarga mo'ljallangan kompleks rivojlantirish dasturiga asosan, Samarqand Davlat Chet – tillar institutida ham quyidagi ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Mazkur dasturga, asosan, hamkor xorijiy oliy ta'lim muassasalari AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Rossiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va boshqa shu kabi xorijiy davlatlarning yetakchi ilmiy – ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarining o'rnatilgani o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda har yili institutga 20 nafardan ortiq xorijlik yuqori malakali pedagog va olimlarning mamlakatimiz oliy o'quv yurtlariga o'quv jarayoniga jalb etilishi ko'zda tutilmoqda [2,5].

Bu esa mamlakatimizda dunyo andazalari talablariga javob beradigan, milliy istiqloq g'oyalarini chuqur his qilgan malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor bilan yondashishni taqozo etadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" talablaridan kelib chiqqan holda, bilimi, mohir va zukko hamda Vatanga fidoiy tarjimonlarni tayyorlash eng muhim dolzarb vazifadir. Shunga muvofiq bo'lajak tarjimonlar tarjima sohasiga doir bilim ko'nikmalarni chuqur anglab yetish bilan birga, til va madaniyat, tilning o'ziga xos tabiati, leksikasi, tarjimon nutqi kabi ilm sirlaridan to'la xabardor bo'lishi bugungi kun talabidir. Shundagina davlat tili – o'zbek tilini barcha jabhalarda keng qo'llashga erishiladi. O'zbek davlatchiligining muhim ramziy belgisi sifatida o'zbek tilining xalqaro doirada qo'llanilishi O'zbekiston davlati taraqqiyoti uchun muhim ma'naviy omil bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, O'zbekiston xalqaro aloqalari keng quloq yoyib borgani sari, sayyohlik sohasida ham rivojlanish kuzatilayotgani sababli, tarjimon kadrlarga ham talab ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida talabalarning yo'nalish va mutaxassisligi bo'yicha ongini, tasavvurini tez rivojlantirishga keng imkoniyat yaratadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017–2021 yillarda Oliy Ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish davlat dasturi bo'yicha qarorida shunday deb ta'kidlaydi: "Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, mamlakatimizning izchil rivojlanib borayotgan iqtisodiyotini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, barcha hududlar va tarmoqlarni strategik jihatdan kompleks rivojlantirish

masalalarini hal qilish borasida Oliy Ta'lim tizimi ishtirokini kengaytirish yo'lidagi yana bir muhim amaliy qadamdir" [2,5].

Bugungi kun yoshlarini bilimli va mahoratli qilib tarbiyalash, sifatli kadr bo'lib yetishishlari uchun barcha shart – sharoitlarni yaratish maqsadida, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev shunday deydi: “Biz yoshlarimizga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

Biz o'zaro ishonch va manfaatlarni hisobga olish asosida xorijiy davlatlar, eng avvalo, qo'shni davlatlar, shu bilan birga, xalqaro institutlar bilan yaqindan hamkorlik qilishni bugungi kun talablari darajasida tashkil etamiz" [2, 14–28].

Xorijiy til materiallarini ona tiliga, ona tili materiallarini esa xorijiy tilga tarjima qilish jarayonida tafakkur qobiliyati o'sadi, bir oyatning o'zida aql, tafakkur, hayol, xotira va so'z, bilish qobiliyati rivojlantiriladi, chunki aytilgan fikrni chuqur tushunishgina emas, balki o'sha fikrni o'z ona tilida mukammal va to'g'ri ifodalay bilish ko'nikmalari ham talab etiladi. Bunga esa faqat ikkala – o'zbek va xorijiy til materiallarini lingvo–tipologik jihatdan chuqur tahlil qilish orqaligina erishish mumkin. Shuning uchun ham ushbu lingvo-tipologik uslub umumiy tilshunoslikda bebaho vosita hisoblanadi. Chunki juda ko'p til materiallarini o'rganilayotgan til ichidagi hodisalarni ona tili ichidagi til hodisalariga taqqoslab ko'rish orqali o'rganish foydali natijalar beradi. Bunday lingvistik yondashish natijasida xorijiy til materiallarigina emas, balki ona tili materiali ham ongli ravishda o'rganiladi hamda chuqurlashtiriladi. Agar fikrning aniq berilishi shartligi ko'zda tutilgan bo'lsa, tarjima o'rniga bir tilli matnlardan, ya'ni perifraza ishlatish matnlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bir fikrni turli vositalar yordamida ifodalay olish qobiliyati ma'lum darajada bilim

olinganligini ko'rsatadi. Kerakli fikrning boshqa so'zlar bilan ifodalanishi perifraza bo'lib, uni mukammal o'rganib olishdan avval yoki uning to'g'ri ekanligini tekshirib ko'rish uchun ham nazariy, ham amaliy tarjimadan foydalanish tavsiya etiladi. Fikrning aniq berilishi shart bo'lgan hollarda, ya'ni turli shartnomalarni xorijiy firmalar bilan tuzishda, ular bilan axborot almashishda, aniq fanlarga oid materiallarni o'rganish jarayonida ikki tilli matnlarning, ya'ni tarjima matnlarining ahamiyati beqiyosdir, chunki har qanday sinonim yoki perifrazaning ham kutilgan ma'noni berishdagi aniqlik darajasida o'ziga xos kamchiligi bo'ladi, u fikrni aniq bera olmasligi ham mumkin.

Ushbu tadqiqot ingliz tilidagi frazeologik birikmalar kategoriyasining tillar va yaruslararo ifodalanish usullarini yoritishga atalib, unda asosan erkin birikmalar, turg'un birikmalar, frazeologik chatishmalar hamda iboralarning leksik-semantik xususiyatlari yordamida ifoda etilishi, frazeologik birikmalarning kelib chiqish yo'llarini o'rganish va bunga tarixiy jihatdan yondashishni, har ikkala ingliz va o'zbek tillari adabiyoti matnlarining kichik intervallari orqali o'rganish jarayonini o'z ichiga oladi.

Mavzuning dolzarbligi. Ingliz tili ming yillik tarixga ega. Bu vaqt ichida unda insonlar tomonidan chiroyli deb e'tirof etilgan katta miqdordagi iboralar yig'ilib kelmoqda. Xuddi shunday tilda o'ziga xos qatlam, mustaqil ma'noga ega bo'lgan turg'un iboralar uyg'unligi bo'lgan frazeologiya ham yuzaga kelgan. Ma'lumki ingliz tilini o'rganish mamlakatimizda keng ommalashmoqda. Tilni puxta egallash ayniqsa ingliz tilini, uning frazeologiyasini bilmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi. Frazeologiyani bilish badiiy adabiyotni hamda publisistikani mutoola qilishni osonlashtiradi. Frazeologiyalarni o'z joyida, mutanosib ishlatish esa nutqni boyitadi. To'g'ridan to'g'ri tarjima qilib bo'lmaydigan ko'chma ma'noda beriluvchi frazeologik iboralar yordamida tilning estetik aspekti kuchayadi. Idiomalar yordamida xuddi ranglarning rang-barangligi kabi tilning informatsion aspekti dunyomizning xayotimizning hissiy intulitiv tasviri bilan to'ladi. Zamonaviy ingliz tilining frazeologiyasi xilma-xildir va ularning har bir bo'limini o'rganish o'ziga xos ahamiyatga egadir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Ushbu ishning maqsadi hozirgi zamon ingliz tilidagi badiiy va ilmiy adabiyotlardan olingan frazeologik birliklarni o'zbek tili bilan qiyoslab o'rganishdan iboratdir. Hamda zamonaviy ingliz tili birliklariga struktur semantik va grammatik xarakteristika berishdir. Zero frazeologizmlarning ko'p qismi ingliz va boshqa tildagi badiiy adabiyot manbalarida uchraydi va ba'zi frazeologik birliklar o'zining birlamchi shaklini saqlab qolgan. O'zlashtirish ingliz frazeologiyasi to'ldirishining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Asosan ko'p miqdorda o'zlashtirish ingliz adabiyotidan amalga oshirilgan. Bundan tashqari lotin, fransuz, grek, ispan, italyan va boshqa tillar adabiyotidan o'zlashtirishlar ham alohida uchraydi. "Frazeologizmlarning kelib chiqishini o'rganish u yoki bu frazeologik ibora o'zlashtirilgan xalqning madaniyati va turmush tarzini bilishda bizga keng ko'lamda yordamlashadi". Ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganuvchilar uchun tilning bu qatlamini o'zlashtirish katta qiyinchilik tug'diradi ammo frazeologizmlarni o'zlashtirgach biz inglizlar kabi gapirishni boshlaymiz, ularni yarim so'zidanoq tushunaolmiz, bizning nutqiy tayyorgarligimiz tezda o'sadi. Ko'p hollarda ingliz tili frazeologizmlarini yaxshi bilish ularni o'zbek tilidan ingliz tiliga so'zma-so'z tarjima qilishda beqiyos yordam beradi.

Bitiruv malakaviy ish metodi. Malakaviy ishda qo'yilgan masalani ochib berishda hozirgi davr tilshunosligida ommalashgan qiyosiy, tasviriy, struktur-semantik metodlardan foydalanildi. Shuningdek, rus tilshunos olimlari V.V.Vinogradov, A.B. Kunin, G'aybullo as Salom va boshqalarning ushbu sohada qo'lga kiritilgan yutuqlar ushbu tadqiqot uchun nazariy manba bo'lib xizmat qildi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi shundaki, ishda leksikologiyaning bir qismi sifatida o'rganiladigan frazeologiya bo'limi tilshunoslik fanining ob'yekti sifatida o'rganildi va tadqiq etildi. Bunda ba'zi bir tilshunos olimlarning nazariyalariga tayaniladi. Shu bilan birgalikda ingliz badiiy adabiyotlarida ko'p uchraydigan o'ziga xos frazeologik birliklarni turli usullar orqali o'zbek tiliga o'girishga astoydil bel bog'ladik.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishda ko‘rilgan masalalar ingliz tili leksikologiyasi, tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslik kabi sohalarga ma’lum bir hissa bo‘lib qo‘shiladi. Amaliy leksikologiya va tarjimashunoslik bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda material sifatida xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, ingliz tili va o‘zbek tillarini qiyoslab o‘rganuvchilar va tarjimonlar uchun zarur manba bo‘lishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning manbai. Bitiruv malakaviy ishni yoritishda ingliz, o‘zbek va rus olimlarning frazeologik birliklar, ularning xususiyatlari va olimlar tomonidan yaratilgan klassifikatsiyasi haqidagi fikrlariga tayanildi. Undagi taqdim etilgan materiallar adabiyotlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan inglizcha-ruscha va ruscha-inglizcha frazeologik lug‘atlar, o‘zbek tili frazeologik lug‘atlariga asoslangan.

Malakaviy ishning tuzilishi. Mazkur bitiruv malakaviy ish kirish, uchta bob, har bir bobda ikkitadan punktlar hamda xulosa va foydalanilgan adabiyotlarning alifrazeologik birlik tartibidagi ro‘yxatidan iborat.

Malakaviy ishning *kirish* qismida O‘zbekistonda ta’lim sohasiga hukumatimizning katta e’tibor bilan qarayotganligi, kadrlar tayyorlashning shu sohada tutgan o‘rni haqida, shuningdek ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar va unga davlatimiz rahbari tomonidan berilayotgan e’tibori xususida so‘z yuritdik. Shu bilan birga bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi, ob’ekti, maqsad va vazifalari, nazariy va amaliy ahamiyati, izlanish metodlari va boshqa xususiyatlari haqida so‘z olib borildi.

Malakaviy ishning birinchi bobi “Frazeologiya tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida” mavzusiga bag‘ishlangan. Unda zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birikmalarning eng to‘g‘ri va aniq tasnifi xususida so‘z yuritildi va tahlil qilindi.

Malakaviy ishning ikkinchi bobi “Tarjimaning frazeologik muammolari” mavzusiga bag‘ishlangan. Bu bobda ingliz tilidagi frazeologik birikmalarning tarjima qilish yo‘llari atroflicha o‘rganildi hamda ularning o‘zbek tilidagi

muqobillari tadqiq etilib mavzuga mos misollar bilan yoritildi. Bundan tashqari bob so'ngida frazeologik birikmalarni ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girish muammolari va frazeologik muvofiqlik borasida kerakli tavsiyalar hamda zaruriy ma'lumotlar qayd etib o'tildi.

Malakaviy ishning uchinchi bobi "Frazali fe'llar va ularning tarjimada berilishi" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, bu bobda xalqaro tillaridagi frazali fe'llarning qiyosiy tahlili ustida ish olib borildi.

Malakaviy ishning xulosa qismida mazkur ish bo'yicha umumiy xulosalarni berib borishga harakat qildim.

Ishning so'nggida mazkur malakaviy ishning yoritilishida foydalanilgan ilmiy va badiiy adabiyot, lug'atlar ro'yxati va internet manbalari berildi.

Tadqiqot aprobatyasi. Bitiruv malakaviy ishimiz yuzasidan, quyidagi maqola chop qilindi:

Usmonov A. (SamDChTI talabasi) Frazali fe'llar va idiomalar// Tarjima va lingvistika (Ilmiy maqolalar to'plami) Samarqand: SamDCHTI,1 – 2018. – B.

I BOB

FRAZELOGIYA TADQIQOT OBEKTI SIFATIDA

1.1. Frazeologiya haqida umumiy ma'lumot

Frazeologiya tilshunoslik sohasining bir qismi hisoblanib, grekcha “pharsis” (faza) “logos” (ta’limot) soʻzlaridan olingan boʻlib, u koʻchma maʼnodan iborat boʻlgan turgʻun birikmalarni oʻrganadi. Frazeologiya (ibora, nutq oboroti, bilim, tushuncha soʻzlarini ifodalaydi). Frazeologiya tilshunoslikning alohida bir qismi boʻlib shakllanganiga hali koʻp vaqt boʻlmagan boʻlsa–da, uning kelib chiqish tarixi til taraqqiyotining ilk bosqichlariga borib taqaladi. Ilmiy tadqiqotlardan maʼlum boʻlishicha, frazeologik birliklar til bilan birga paydo boʻlib, til bilan birgalikda rivojlanib kelgan. Ammo jamiyatning turli davrlarida ularning oʻrni va ahamiyati turlicha baholanadi. Frazeologizmlar tuzilishi, leksik–semantik, funksional–uslubiy va sintaktik vazifalari, shuningdek, oʻziga xos shakllanish xususiyatlariga ega boʻlgan til birligidir.

Frazeologiya – tilshunoslikning biror tilga xos barqaror soʻz birikmalarni va iboralarni oʻrganadigan boʻlim. Frazeologiya atamasi XVI asrning ikkinchi yarmida ingliz adabiyotshunosi va tarjimoni Neandr tamonidan birinchi bor qoʻllanilgan. Jahon tilshunosligida frazeologiyani u yoki bu jihatlari nazariy va amaliy oʻrganilib, uning turli jihatlariga bagʻishlangan monografik kuzatishlar, dissertatsiyalar, lugʻatlar, ilmiy maqolalar yuzaga keldi. Frazeologizmlarni oʻrganishning xilma–xil metodlari ham shakllandi. Bu esa tadqiqotlarni yanada jadallashtiradi, ularni ilmiy–amaliy va tizimli oʻrganishga imkoniyat yaratadi.

Tilshunoslikda frazeologiya atamasi Sharl Balli tamonidan ishlatilib, stilistika fani bilan qoʻshib oʻrganilgan, lekin frazeologiyani fan sifatida tan olish fikrini bildirgan taniqli tilshunos olim prof. E. F. Polivonovdir. Shu fikrni qullab quvvatlagan olimlardan yana biri mashhur tilshunos olim V.V.Vinogradovdir. U oʻzining qator ilmiy tadqiqotlarida rus tilidagi frazeologik birikmalar taʼlimotlarni yigʻadi va ularni semantik jihatdan guruhlariga boʻlib chiqadi.

E.D.Polivanov va V.V.Vinogradovlar tomonidan oʻrtaga tashlangan frazeologiya haqidagi fikrlar keyinchalik bu sohada koʻplab tadqiqotlarning yuzaga chiqishiga turtki boʻldi. Lekin hozirga qadar frazeologiyani fan sifatida qarash yoki qaramaslik haqidagi fikrlar oʻz yechimini toʻlaligicha topgan emas. Idioma frazeologizmlar, frazeologik birikmalar va turgʻun iboralar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) orasidagi bir qancha farqlarga qarab bir qancha olimlar frazeologiyani 2 xil: tor va keng maʼnoda izohlaydilar. Uni keng maʼnoda anglaganda (L.P.Smit, V.P.Jukov, V.N.Teliya, N.M.Shanskiy) frazeologiya ichiga maqol va matallar, xalq ogʻzaki ijodiga mansub boʻlgan iboralar, bir qancha soʻzlashuv shakillarini (salomlashish, xayrlashish iboralarini) ham kiritishadi. Ammo frazeologiyani keng koʻlamda tushunish masalasi haligacha ham oʻz yechimini topgani yoʻq desak aslo mubolagʻa boʻlmaydi.

“Turgʻun birikmalar frazeologiya tarkibiga kiritilmaydi hamda maqol va matallar shakl jihatdan gapga toʻgʻri kelgani uchun ularni frazeologiya oʻrganishi kerak boʻlgan predmet boʻlishi mumkin emas” deb taʼkidlagan edi mashhur rus tilshunos olim V.V. Vinogradov. [27;61]. Vinogradov bu fikrga qarshi bolishiga qaramasdan bir qancha olimlar bu fikrni qoʻllab-quvvatladilar. Shulardan biri M.Sodiqova frazeologiyani keng maʼnoda tushunib, oʻzining “Ruscha–oʻzbekcha frazeologik lugʻati” tarkibiga maqol va matallarni ham qoʻshib qoʻyadi. Obrazli iboralar, maqollar hikmatli soʻzlar va idiomatik birikmalarni frazeologik birikma tarkibiga kiritgan YA. D. Pinxasov ham frazeologiyani keng maʼnoda tushunuvchilar qatoriga qoʻshiladi. Shuningdek, Q. Musaev ham mana shu ikkinchi fikrni qoʻllab–qoʻvvatlaydi. Biz ham shu fikrga qoʻshilgan holda frazeologizmni keng maʼnoda tushunamiz va tarjimada esa erkin soʻz birikmalarini ham haqiqiy frazeologizm deb hisoblaymiz.

Jumladan, frazeologiyaning hajmini tor maʼnoda tushunuvchilar iboralarning faqat oʻzini oʻrganish lozim deb maqol, aforizm va hikmatli soʻzlarni frazeologiyaga kiritmaydilar. Baʼzi olimlar frazeologik birikmalarni soʻzlarning ekvivalenti hisoblashib, uni leksikologiya tarkibiga kiritadilar. Professor Sh. Raxmatullaev ham shu fikrga qoʻshilib: “Lugʻat boyligi soʻzlardan va shu soʻzlar

asosida tuzilgan iboralardan tashkil topadi. Soʻz lugʻat boyligi sifatida leksik birlik, deb iboralar esa frazeologik birlik deb ataladi. Bular umumlashtirilib, lugʻaviy birlik deb yuritiladi. Ibora lugʻaviy mano anglatish uchun xizmat qiladi. Shunga koʻra u lugʻaviy birlik hisoblanadi va shu jihatdan soʻz bilan bir qatorda qoʻyiladi”.

Frazeologiyaning alohida fan sifatida oʻrganilishi bir necha asrlarni oʻz ichiga oladi. Xususan, XVIII asrdan boshlab rus tilshunosligida tadqiqotchilari oʻrtasida frazeologiyaga qiziqish avj ola boshlagan. Shulardan biri M.V. Lomonosov rus adabiy tili lugʻatini tuzar ekan, bu lugʻat tarkibida soʻzlar bilan bir qatorda “xalq maqollari”, “idiomatizmlar” va “frazemalar” ham oʻz ifodasini topgan boʻlishi lozimligini alohida taʼkidlagan edi [38,15].

XX asrning 60–80 yillarida xorijiy adabiyotlarda, xususan ingliz adabiyotida ham frazeologiya sohasiga boʻlgan qiziqish nihoyatda oshib ketdi. Shuni alohida taʼkidlash joizki Gʻarbda xususan Amerika tilshunosligida shu vaqtgacha frazeologiya sohasiga atalgan birorta ham asar boʻlmagan. Umuman “frazeologiya” termini ilk marotaba Sharl Balli tomonidan “Precis de stylistique” asarida qoʻllanilgan. Frazeologiya sohasining ilk tadqiqotchisi, shubhasiz, shvetsar–fransuz tilshunosi Sharl Balli hisoblanadi. U oʻzining “Stilistika ocherki”(1905) va “Fransuz stilistikasi”(1909) nomli asarlarida soʻz birikmalari, frazeologizmlarni tadqiq etuvchi maxsus boblar kiritgan [55;65].

Birinchi asarda Sharl Balli soʻz birikmalarining toʻrt turini farqlagan:

1) erkin birikmalar (les groupements libres) oʻz maʼnosida qoʻllaniladigan birikmalar;

2) odatiy birikmalar (les groupements usuels) nisbattan erkin bogʻlangan birikmalar boʻlib tarkibiga baʼzi oʻzgartirishlar kiritish mumkin

3) frazeologik qatorlar (les series phraseologiques) bunda ikki va undan ortiq birliklar birikib yaxlit bir maʼno ifodalab keladi, ammo uning komponentlari tartibiga oʻzgartirishlar kiritish mumkin

4) frazeologik birliklar (les unites phraseologiques), bunda oʻz maʼnosini tamomila yoʻqotgan, komponentlari tartibi qatʼiy boʻlgan birliklarni kiritadi [55;65].

Ikkinchi kitobida esa Balli birikmalarning faqatgina ikki turini farqlaydi. U keyingi asari “Fransuz stlistika” sida odatiy birikmalar hamda frazeologik qatorlarni erkin birikmalar va frazeologik birliklarning tarkibiy qismi sifatida talqin qilgan .Umuman Sharl Balli frazeologiya sohasida tadqiqotni boshlab bergan ilk tilshunoslardan edi. Keyinchalik bu sohada juda ko‘p muvoffaqiyatlarga erishildi [35;10].

Frazeologiya ilk marotaba tilshunoslikning alohida mustaqil bo‘limi sifatida rus tilshunosi Polivanov tomonidan tahlil qilingan bo‘lib u frazeologiyani leksikologiya yoki stilistikaning tarkibiy qismi emas balki mustaqil tilshunoslik bo‘limi ekanligini quyidagicha asoslab bergan edi: ”Leksikologiya so‘zlarning leksik ma’nolarini, morfologiya so‘zlarning gramatik ma’nolarini, sintaksis esa so‘z birikmalarining grammatik ma’nolarini o‘rganadi. Ammo alohida olingan, ko‘chma ma’noli so‘z birikmalarining, individual ma’nolarini o‘rganadigan tilshunoslikning bo‘limiga ehtiyoj sezilmoqda.”. U tilshunoslikda frazeologiya ham, fonetika yoki morfologiya kabi muhim ahamiyat kasb etuvchi bo‘lim ekanligini ta’kidlab o‘tgan tilshunoslardan biridir [43;60].

B.A. Larin Polivanovdan so‘ng frazeologiyani alohida tilshunoslik bo‘limi sifatida o‘rganilishini taklif qilgan tilshunoslardan biridir. ”Frazeologiya tilshunoslik bo‘limi sifatida hali “yashirin rivojlanish bosqichida”...u hali alohida fan sifatida rivojlanib bo‘lgani yo‘q...ammo uni alohida fan sifatida shakllanishi hozirgi zamon tilshunosligida katta zaruratni taqozo qilmoqda. Zero bu sohaga oid muammolarni ba’zan leksikografiya, ba’zida esa stilistika yoki sintaksisda hal qilinishi hech kimga sir emas” deb ta’kidlab o‘tgan [39; 201–202].

Frazeologiyani tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida buyuk rus tilshunosi V.V. Vinogradov ham ko‘rib chiqqan. U rus tilida frazeologik birliklarni semantik jihatdan klassifikatsiya qilgan bo‘lib, uning frazeologiyaga oid ishlari o‘z davri uchun yirik qadamlardan biri edi. Ammo uning asari nashr qilingandan keyin ham frazeologiya tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatda tan olinmadi. Chunki Vinogradov frazeologiyani keng planda tahlil qilgan bo‘lib, uning frazeologiyaga

oid asarlarida frazeologik birliklar va oddiy soʻz birikmalari orasidagi chegara belgilab berilmagan edi.

Xususan V. V. Vinogradov tilda frazeologik birliklarni ajratib berishni aytib oʻtmagan, frazeologik birliklarni tuzilish jihatdan soʻzlarga yaqinligini hisobga olib, u oʻz nazariyasini soʻzning grammatik tahlili qismiga kiritgan [27;63].

Frazeologiyaning alohida fan boʻlib shakllanishigacha bir qancha bosqichlarni boshdan kechirgan. Shuningdek, frazeologiyaning shakllanish tarixini ketma–ketlik jihatidan uch davrga boʻlib oʻrganish ahamiyatlidir. [32;18]:

Birinchi davr XVIII asrning oʻrtalaridan XX asrning 30–yillarigacha boʻlgan oraliqdagi vaqt boʻlib, u M.N. Lomonosov, A.A.Potebnya, F.F. Fortunatov, A.A. Shaxmatovlarning ilmiy ijodining mahsuli hisoblanadi.

Shuni alohida takidlash joizki, birinchi davrda frazeologiya leksikografiyaning alohida predmeti sifatida ishlatilgan. Bu davrda frazeologiyani koʻpincha lugʻatlarda aks ettirish, ular maʼnolarining kelib chiqishini izohlash, tadbiq etishga alohida oʻrin berilgan edi.

Ikkinchi davr, XX asrning 30–50–yillari boʻlib, E.D. Polivanov, V.V.Vinogradov, S.I.Abakumov, G.K. Damilov, A.I Yefimov, A Y. Rojanskiy kabi linguistlarning ijodini oʻz ichiga qamrab oladi. Bu davrni frazeologiyaning mustaqil tilshunoslik sohasining rivojlanish bosqichi deb aytsak aslo mubolagʻa boʻlmaydi.

Uchinchi davr XX asrning 60–yillaridan boshlab to hozirgi kungacha boʻlgan davrni oʻz ichiga oladi. Bu davr frazeologik nazariyalarda turli metodlarning foydalanilishi frazeologiya sohasining jadallik bilan rivojlanishi va frazeologiya sohasida koʻplab kadrlarining yetishib chiqishi bilan xususiyatlanadi.

Frazeologiyaning tilshunoslikning oʻziga xos sohasi sifatida rivojlanishi mashaqqatli yoʻllarni boshdan kechirdi. Hatto atoqli ingliz tilshunosi Smirnitskiy ham frazeologiyaning alohida tilshunoslik sohasi ekanligi tarafdori boʻlgan.

“Frazeologik birikmalar nazariyasi bilan leksikologiyaning bir boʻlimi boʻlgan frazeologiya oʻrganishiga qaramasdan, u tilning sintaktik qismida oʻrganilishi zarur. Agar biz frazeologiyani alohida soha deb tan olmaydigan

bo‘lsak, uni alohida fan deb ayto olmaymiz” degan edi Smirnitskiy “Ingliz tili sintaksisi” asarida. [49;53]

Frazeologik birliklar tilning lug‘at boyligini boyitib kelgan bo‘lib, mazmunan bitta so‘zga teng birliklar bo‘lib u ko‘p yillar davomida leksikologiyaning bir qismi sifatida o‘rganilgan. Ammo shuni qisqacha aytib o‘tish joizki, frazeologik birlik larning so‘zga ekvivalentligi alohida o‘rganilishi muhim bo‘lgan muammolardan biridir. Sharl Balli nazariyasiga asosan frazeologik birlik larning eng muhim belgisi yagona bir so‘z bilan sinonimik munosabatga kirisha olishi, yoki olmasligidadir. Bunday so‘zni Sharl Balli so‘z–identifikator deb nomlagan va bu o‘ziga xos o‘zgarishlarni frazeologik birlik larning ichki birikishi ekanini aytib o‘tgan [35;16].

Biroq uning bunday fikrlariga mos tushmaydigan holatlar ham yo‘q emas. Misol uchun, ingliz tilida bir qancha frazeologik birlik larning so‘z–identifikatorlari bo‘lmaydi, ya‘ni ularni ma‘nosini alohida bir so‘z bilan ifodalashning imkoni yo‘q.

Masalan:

drink like a fish= drink too much

Bu misolda ko‘p suv ichishni baliqdek suv ichishga qiyoslayabdi.

a hard nut to crack=a very difficult problem

Bu misolda esa qattiq yong‘oqni chaqishni juda qiyin muammoga o‘xshatayabdi.

a small way=on a small scale

Bu misolda ham kichik yo‘lni kichik tanga bilan qiyoslayabdi

Shuningdek, tilning frazeologik fondini tashkil qiluvchi maqol va matallar identifikatori faqat gaplardan iborat bo‘lishi mumkinligini ham aytib o‘tish kerak.

Masalan:

Birds of a feather flock together — people who have the same interests, ideas [35;15–16].

Bu misolda qushlarning patidek to‘planishni bir– xila qiziqish va fikrlarga ega bo‘lgan insonlarga o‘xshatayabdi.

Shuning uchun ham frazeologik birliklarni tilning boshqa birliklaridan ajralib turadigan, o'ziga xos ma'no va tuzilishga ega bo'lgan birliklardir deb aytish maqsadga muvofiqdir. Ularni so'z ekvivalenti sifatida o'rganish sohani murakkablashtirishga olib keladi. Haqiqatdan ham frazeologik birliklar va so'zlar umumiy jihatlarga ega, ammo bu umumiylikni orttirib ko'rsatmaslik kerak.

Xususan, ularni o'ziga xosliklarini quyidagicha ifodalab ko'rsatish mumkin:

1. Frazeologik birliklar va so'zlar tuzilish jihatdan ham semantik jihatdan ham alohida-alohida birliklar hisoblanadi.

2. Frazeologizmlar yaxlit holda, yoki qisman ko'chma ma'noga asoslangan birlikma yoki gap sha klidagi birliklar hisoblanadi. Turg'unlikda shakl va mazmun jihatdan yaxlitlik ular uchun o'ziga xos jihatlardir. So'zlar esa ular kabi so'zlardan emas morfemalardan iboratdir. So'zlar lug'aviy ma'nosida ham ko'chma ma'noda ham qo'llanila oladi. So'zlarda frazeologik birliklar uchun xos bo'lmagan prefikssatsiya va affikssatsiya hodisalari kuzatiladi. Tildagi barcha so'zlar bir biri bilan paradigmatic munosabatlarga kirisha oladi, ammo frazeologik birliklarda esa bunday o'ziga xos xususiyatlar bo'lmaydi.

3. So'zlar va frazeologik birliklar tilning turli sohasiga mansub birliklardir, frazeologizmlar – frazeologik soha birliklari bo'lsa, so'z leksik soha birligidir.

4. Tilning turli sohalariga mansublik frazeologik birliklarni nafaqat ajratadi balki ularning o'zaro aloqadorligini ham ko'rsatib beradi. Masalan ularning har ikkisida ham bir xil sintaktik vazifa bajarishi ko'rinadi. Bundan tashqari ularning har ikkisida ham ko'p ma'nolilik va omonimiya, antonomiya va sinonimiya kabi ma'no munosabatlarini ko'rish mumkin [35;19–20].

Biz frazeologiyani tilning xazinasiga qiyoslasak bo'ladi. Chunki aynan u xalqning tarixini, madaniyatini va o'ziga xos jihatlarni ko'rsatib beraoladi. Frazeologizmlar asosan har bir millatning an'analaridan tortib to urf–odatlarigacha, o'zida aks ettiradi. Ammo ingliz tili frazeologiyasida milliy an'analarni o'zida mujjassamlashtiruvchi frazeologik birliklar bilan birgalikda xalqaro frazeologizmlarga ham duch kelishimiz mumkin.

Frazeologizmlarni nutqni bezovchi vosita sifatida o'rganish umuman xato hisoblanib, ular ham boshqa til birliklariga o'xshab yuqori informativ shakldagi xususiyatga ega bo'lish bilan birgalikda, tilda nominativ va kommunikativ vazifa bajaruvchi birliklar hisoblanadi. Frazeologizmlar universal til vositalari bo'lib, ularsiz til mavjud emas.

Frazeologizmlarning stilistik imkoniyati o'ta muhimdir. Frazeologik stilistika, frazeologik birliklarning uslubiy xususiyatlarini tadqiq etadi va bu sohada leksik uslubshunoslik tajribasiga, turli stilistik birliklar tahliliga tayanadi. Zero, frazeologik birliklar tilda nominativ funksiya bajarish bilan bir qatorda, malum bir emotsionallikka, ekspressiv o'ziga xosliklarga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Til tarixi hamda etimologiya frazeologik birliklarning etimologik tahlilida o'ziga xos o'rin egallaydi. Ingliz tilida ham boshqa tillar singari tilning milliy-madaniy semantikasini o'rganish muhim hamda qiziqarli hisoblanadi. Chunki ular avloddan avlodga tilning o'ziga xos ichki tuzilmalarini, tabiati o'ziga xosliklari, mamlakatning iqtisodiy hamda ijtimoiy tuzilishi, san'ati, urf-odatlarini hamda tarixini ham o'zida mujassamlashtira oladi. Ularda bolalar milliy o'yinlari, pul birliklari to'g'risida, milliy tabobat, ov hamda baliq ovi haqida, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida, insonning tashqi ko'rinishi, kiyinishi va turmush tarzi va ko'plab boshqa milliy mentalitetga xos mavzular aks etgan bo'ladi.

Milliy-madaniy semantika tilshunoslikning barcha bo'limlarida, morfologiyada ham sintaksisda ham hattoki fonetikda ham aks etgan bo'ladi. Faqat u millat madaniyatini bevosita aks ettira oladigan, yaxlit, so'zlashuv nutqida ko'p qo'llanadigan frazeologik birliklarda yorqinroq ifodalanadi.

Shunday qilib, frazeologiyani alohida fan sifatida tan olinishi bir necha bosqichlarni bosib o'tgan bo'lsada, hozirda frazeologiya o'zining ichki tuzilishi-yu, tadqiqot masalalariga ega bo'lgan alohida tilshunoslik bo'limi sifatida shakllanib bo'ldi. Undagi ko'plab muammolar hali o'z yechimini kutayotgan bo'lsada, hozirgi zamon tilshunosligida frazeologik masalalar birin-ketin yoritilmoqda.

1.2. Maqol, matal va idiomalar frazeologik birlik sifatida.

Dunyodagi eng ulkan narsalar ham mayda zarrachalardan tashkil topadi. Binobarin, eng mayda zarracha ham har qanday ulkan narsaning bir qismidir.

Oz–oz o‘rganib dono bo‘lur

Qatra–qatra yig‘ilib daryo bo‘lur

deb shuni aytadilar. Badiiy asarga jilo berib turgan uning zarrachalari: maqol, matal, idiomalar va boshqa ko‘chma ma’noli birikmalar bo‘lib, ular badiiy asar qiymatini, zavqini oshirishga katta yordam beradi. Maqol, matal va idiomatik birliklar badiiy asarda yozuvchi tilida hamda unda tasvirlangan personajlarning nutqida ko‘p ishlatilishi sababli ular badiiy adabiyot uchun juda xarakterlidir. Ammo A.V.Fyodorovning fikriga ko‘ra, nutq vositalarining bu birikmalari faqatgina badiiy adabiyot uchun xususiy mulk bo‘la olmaydi. Chunki frazeologik iboralar publistikada va qisman ilmiy adabiyotlarda ham ishlatiladi. Shuning uchun ularga faqat badiiy adabiyot masalasi deb emas, balki juda muhim til masalasi deb qaramoq kerak.[Fyodorov]

“Dunyoda tilsiz xalq bo‘lmagani kabi, maqolsiz til ham yo‘q” – degan edi tatar yozuvchisi Nokay Esanbat yoki “Agar mendan: tilda ham mo‘jizalar bo‘ladimi? deb so‘rasalar, men: agar bo‘lsa tilning “mo‘jizasi” undagi maqol, matal va idiomalaridir deb javob qilgan bo‘lar edim”, – deydi taniqli tarjimashunos olim G‘aybulloh–as–Salom [maqol–3–b].

Chindan ham gapning qaymog‘i, shirini, olam–olam ma‘no beradigani shu bilan birga lo‘ndasi maqol va matallardir. Ko‘chma ma’noli bunday birikmalarni faqat bir til doirasida o‘rganishning o‘zi juda muhumdir. Ammo agar xalqimiz “aqlning ko‘zi” deb atagan otalar so‘zi boshqa tillardagi shunday iboralar bilan qiyos qilinib, badiiy tarjima misollari asosida tekshirilsa yanada sermazmun bo‘ladi.

Maqol chuqur ijtimoiy, axloqiy, falsafiy mazmunga ega bo‘lgani uchun ba’zi maqollar butun bir roman(asar)ni yoki dramaning mazmunini o‘zida ifodalashi mumkin. Misol uchun, N.V. Gogolning “Revizor” komediyasiga epigraf qilib

olingan «basharang qiyshiq bo'lsa, oynadan o'pkalama» maqoli asarning boshidan oxirigacha jaranglab turadi:

Shahar hokimi, Xlestanov, Dobchinskiy, Bobchinskiy hamda boshqa obraz va personajlarning butun hatti-harakatlari shu maqolni eslatib turadi. “Xalq maqoli har bir kishi amal qilishi lozim bo'lgan o'ziga xos ahloqiy qoidalar kodeksidir.” Maqollarda hayotiy tajribalar natijasidan kelib chiqqan qimmatli fikrlarning xulosasi ifodalanadi. Maqollar ko'pincha she'riy shaklga ega bo'ladi. Ular o'zining sodda, aniq va lo'nda ishlanganligi bilan ham boshqa turlaridan farq qiladi.

Maqollar fikrni aniq, lo'nda va obrazli tarzda bayon etishda nutqimiz uchun muhim vosita hisoblanadi. Maqollar har qanday shoir, yozuvchi yoyinki notiq uchun ulkan xazina bo'lib, ulardan ustalik bilan foydalanish yozuvchining asarini, notiqning nutqini pur ma'noli va jozibali qiladi, aytmoqchi bo'lgan fikrini obrazli ifodalashga yordam beradi, badiiy jihatdan g'oyat ta'sirchan bo'lishiga olib keladi. Har bir maqolda biz shu maqolni yaratgan xalqning siymosini ko'rishimiz mumkin. Tarixiy manbalarda ham, xalq orasida ham aforistik ijod turlari rang – barang atamalar bilan nomlanib kelinadi. Maqol, matal, naql, masal va hikmatli so'zlar shular jumlasidandir. Bu terminlar bir – biri bilan uzviy bog'liq holda ishlatilib, biri o'rniga boshqasi qo'llanilib kelinmoqda. Ammo ularni qo'llashda ma'lum chegaralar belgilash, aniqliklar kiritish lozimga o'xshaydi. Shu jihatdan qaraganda, maqol (proverb), matal (saying), idioma (idiom), aforizm (aforism), naql (parable) kabi terminlarni adabiy janr nomlari sifatida aforistik va didaktik ijodning muayyan namunalariga nisbatan qo'llash qat'iylashmoqda.

Maqol va matalning termin sifatida qo'llanilish xususiyatlari haqida ham shu xilda mulohazalar bildirish mumkin. Maqol termini arabcha “qavmun” (aytmoq, gapirmoq) so'zidan olingan bo'lib, xalq donoligining namunasi bo'lmish aforistik janrlardan birining atamasiga aylangan va ma'qul aytilgan so'z, gap yoki ibora ma'nolarini anglatadi.

Matal xalq ta'rifi bo'yicha – g'uncha, maqol esa mevadir. Maqol to'liq ma'no va mazmun anglatuvchi gap bo'lsa, matal ko'chma ma'no ifodalovchi ibora, maqolning yarmidir. Shuni ta'kidlash joizki, maqol va matallar o'zaro farqlanuvchi

jihatlarga asoslangan ikki mustaqil, lekin bir –biriga o‘tib turuvchi janrlar hisoblanadi.

Maqol mustaqil folklor janri sifatida qator o‘ziga xos xususiyatlar bilan uni boshqa aforistik janrlardan, xususan, matallardan keskin farqlanib turadi. Bu farqlar quyidagilardan iborat:

1. Maqol turmushda sinalgan, ma’lum ezgu, tugal umumiy ma’no anglatuvchi ixcham jarangdor shaklga kirib qolgan xalq hikmatidir.

Masalan: Bir yigitga yetmish hunar oz. Aql yoshda emas boshda.

Matal esa narsa va hodisalarni obrazli ifodalovchi, tilda keng ishlatiladigan nutqiy tarkibdir.

Masalan: Burgaga achchiq qilib ko‘rpani kuydirmoq. O‘zini aka echkisini esa taka demoq. O‘zimni sen, uni siz deb yurgan edim.

Matal aytilmoqchi bo‘lgan fikrni biror vosita orqali ifodalovchi ko‘chma ma’noli soda jumla bo‘lib, unda xulosa bo‘lmaydi balki uning o‘zi biron xulosa chiqarish uchun xizmat qiladi. Matal fikrni tugal bayon qilmay, balki unga ishora qiladi.

Matal “u ahmoq odam” deyish o‘rniga “uning bir qaynovi past” deydi: “Ular bir-biriga o‘xshaydi” deyish o‘rniga – “Ular bir olmaning ikki pallasi” – deb aytadi [Ochilov–48–b].

2. Maqol asosida ibratomuz tugal fikr yotsa, matal asosida chiroyli, obrazli, ammo tugal bo‘lmagan ifoda yotadi. Binobarin, matal ixcham, bir komponentli kompozitsiyaga ega bo‘ladi.

3. Matal nutqda ko‘rsatish vositasi bo‘lsa, maqol dalillash, isbotlash vositasi sifatida qo‘llaniladiki, ularning bunday farqli xususiyatlari haqida boshqa folklorshunoslar ham to‘xtalib o‘tishgan.

Maqollarning folklorlarning boshqa janrlariga xos xususiyatlaridan yana biri, ularning xalq orasida og‘zaki yashashi va variantlashgan holda keng tarqalishidir. Bundan tashqari, xalq maqollarining aniq yaratuvchisini ham, ularning qaysi davrda vujudga kelganligini ham aniqlab bo‘lmaydi, ya’ni maqollar ijodkori mavhum xarakterga egadir.

Maqol va matallar ingliz folklori tarkibidan keng o‘rin olgandir. Ularda vatanparvarlik, mardlik, adolat, ilmni sevish, xotin – qizlarga hurmat, yaxshilik, ahillilik, odob – axloq, tarbiya, hurmat izzat, ta’lim, hunar, mehnatsevarlik va shunga o‘xshash bir qancha xususiyatlar o‘rin olgandir.

Inglizlarda, One good turn deserves another,

o‘zbeklarda esa, – yaxshilik qilsang, yaxshilik qaytar, yomonlik qilsang – yomonlik.

Two heads are better than one;

– Bir kalla – kalla, ikki kalla – tilla.

Healthy mind in a healthy body;

– Sog‘lom tinda sog‘ aql.

A fault confessed is half redressed;

– Egilgan boshni qilich kesmas, deyishadi.

Frazeologizmning yana bir shakllaridan biri idiomadir. Idiomani (yunoncha – “o‘ziga xos ibora” degani) ta’riflash yanada qiyinroq. Buni quyidagi ta’riflar – ning xilma – xiligidan ham bilsa bo‘ladi:

1. “Idioma – ma’nosi o‘z tarkibidagi so‘zlarning ma’nolariga bog‘liq bo‘lmagan, yaxlit holda bir ma’no beruvuvchi ixcham ibora.

Masalan: tomdan tarasha tushganday, og‘zingga qarab gapir”. [Ochilov–48–b].

2. “Idioma... ma’lum bir tilga xos, unga o‘zlashib ketgan va boshqa tilga so‘zma so‘z tarjima qilib bo‘lmaydigan nutq birligidir.”

3. “Ma’nosi ayni ibora tarkibidagi so‘zlarning mazmunidan kelib chiqmaydigan iboraga idiomatik ibora deyiladi”. Idiomashunos olim A.Y.Rojanskiy bunday iboralarning uch asosiy belgisini ajratib ko‘rsatadi:

a) birikmaning turg‘unligi;

b) birikmaning ko‘chma ma’noliligi;

v) birikmaning ma’noviy butunligi.

Idiomalar ingliz frazeologik birliklarining ko‘payishida muhim rol o‘ynaydi. Idiomalarda metonimiya va metaforia yo‘li bilan ko‘chirishlar alohida o‘rin tutadi:

A bull in a china shop – tor joyda tomosha (soʻzma–soʻz: Xitoy doʻkonidagi hoʻkiz);

The lay of the land – narsalarning holati (soʻzma–soʻz; qirgʻoqning holati);

A break in the clouds – umid chirogʻi (soʻzma–soʻz; bulut orasidagi nur)

Maqol, matal va idiomalarning biri–biridan farqlanishi quyidagi jadvaldan ham bilish mumkin.

MAQOL	MATAL	IDIOMA
Strike while the iron is hot. Temirni qizigʻida bos. He who is born fool is never cured. Bukrini goʻr toʻgʻrilar. A burnt child dreads the fire. Ogʻzi kuygan qatiqni ham puflab ichar. Nothing questioners, he that nothing learned. Bilmaganni soʻrab oʻrgangan olim, orlanib soʻramagan oʻziga zolim.	Two dogs over one bone seldom agree. Ikki qoʻchqorning kallasi bir qozonda qaynamas. Murder will out. Qingʻir ishning qiyigʻi qirq yildan keyin ham chiqar. There is no rose without a thorn. Tikansiz gul boʻlmas. To be on thin ice. Hayoti qil ustida turmoq.	To know something (somebody) like the palm of one's hand. Biror narsa(kishi)ni besh barmoqday bilmoq. Wise after the event. Axmoqning aqli peshin kirar. To catch red-handed. Jinoyat ustida ushlamoq. To be in a fix. Qiyin ahvolga tushib qolmoq.

Ingliz tili maqollaridagi milliylikining oʻziga xos xususiyatlari toʻgʻrisida soʻz ochadigan boʻlsak, ingliz xalqining xarakteri xususida toʻxtalish zarur. Bu xalq dunyo millatlari oʻrtasida takabbur va izzattalabliligi bilan ajralib turadi. Bu jihat ularning maqollarida ham oʻz aksini topgan:

Better to reign in hell, than serve in heaven (“jannatda xizmat qilgandan koʻra doʻzaxda hukmronlik qilgan afzal”).

A civil denial is better than a rude grant (“qoʻpol taqdirlanishdan koʻra hurmat bilan rad etilgan yaxshi”).

Shuningdek, inglizlarga xos yana bir hislat – bu ularning bolalarga qaraganda uy hayvonlariga bo‘lgan mehri yuqoriroq turishini maqollarda “bola” timsolidan ko‘ra “it”, ayniqsa, “mushuk” timsollarida ko‘rishimiz mumkin. Masalan:

Dog does not eat dog (“qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi”).

Barking dogs seldom bite (“ko‘p vovullagan it tishlamaydi”).

When the cat is away, the mice will play (“mushuk yo‘q bo‘lsa sichqon bayram qiladi”).

A cat in gloves catches no mice (“qo‘lqopli mushuk sichqon tuta olmaydi”).

Milliy madaniyatda din ham katta ahamiyat kasb etadi. O‘zbek maqollariga qaraganda ularda bu yaqqol namoyon bo‘ladi, ya’ni ularda jannat, do‘zax va shayton obrazlari muhim ahamiyat kasb etadi:

Hell is paved with good intentions (“do‘zax ham ezgu niyatlar asosida yaratilgan”).

Better to reign in hell, than serve in heaven (“jannatda xizmat qilgandan ko‘ra do‘zaxda hukmronlik qilgan afzal”).

The devil is not so black as he is painted (“shayton tasvirlaganlaridek qop – qora emas”, ya’ni “qo‘rqqanga qo‘sh ko‘rinar”).

He that sups with the devil should have a long spoon (“shayton bilan sho‘rva ichmoqch bo‘lgan odamga uzun qoshiq darkor”, ya’ni “yomon bilan hamtovoq bo‘lsang, o‘zingdan o‘pkala”).

O‘zbek tili maqollaridagi mentalitet tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, xalqimiz qonidagi mehmondo‘stlikmasdan ilojimiz yo‘q. Maqollarimizda mehmonga bo‘lgan hurmat–izzat, bag‘rikenglik yaqqol ko‘rinib turadi. Misol uchun: *Mehmon – atoyi xudo.*

Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kelar teshikdan.

Shu bilan birga, o‘zbeklar bolajon xalq bo‘lib, ona va bolaga bo‘lgan e’tibor benihoyat kuchli:

Ona bilan bola – gul bilan lola

Bolali uy – bozor, bolasiz uy mozor.

Bolamning bolasi – qandin o‘rik donasi.

Yana shuni ham aytib o'tish joizki, , “qaynona” va “kelin” obrazlari faqatgina o'zbek xalqi maqollariga xosdir. Masalan:

Kelin bo'ldim — qaynonamga yoqmadim, qaynona bo'ldim — kelinimga yoqmadim.

Qaynonaga tosh otsang tosh olasan, qaynonaga osh bersang osh olasan.

Uyat, andisha, hayo kabi mavzular ham faqat o'zbek maqollarida uchraydi desak yanglishmaymiz. Isbot uchun:

Andishaning oti qo'rqq.

Sharmsizlik – sharmandalik nishoni.

O'zbek xalqi nonni juda e'zozlaydi va buni maqollarda ham kuzatamiz:

Non mo'lligi – el to'qligi.

Nonga hurmat – elga hurmat.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Ma'lumki frazeologik birliklar nutqga ma'no–mazmun, mohiyat, obrazlilik hamda jozibadorlik bag'ishlaydi. Frazeologiyani alohida til sistemasi sifatida o'rganish nafaqat ilmiy frazeologik tadqiqotlar, balki amaliy va nazariy frazeologiya uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Chunki turli frazeologik lug'atlar tuzish jarayonida albatta frazeologik sistema aniqlanadi hamda unga asoslaniladi. Frazeologiya o'zining alohida til sohasi yoki sistemasiga ega ekanligi so'nggi yarim asr mobaynida yetuk olimlarimiz tomonidan ta'kidlab o'tildi. Frazeologik tizim o'ziga xos xususiyatlarga ega. U o'z birliklarining hosil bo'lishiga ko'ra leksik tizimdan farq qiladi, chunki frazeologizmlar so'zlardan tashkil topadi, strukturasiga ko'ra so'z birikmasi yoki gapga teng bo'ladi. So'z va frazeologizmlarning gap komponentlari sifatida kelishi esa umumiy o'xshashlikdir, lekin frazeologik sistemaning birliklari tuzilishiga ko'ra, ba'zilar vazifasiga ko'ra gaplarga yaqin turadi.

Hozirgi zamon tilshunosligi nuqtai nazaridan olib qaralganda frazeologiya alohida fan sifatida tan olingan bo'lsada u bevosita leksikologiya, grammatika, stilistika, fonetika, til tarixi, falsafa fanlari tarixi, mantiq hamda mamlakatshunoslik fanlari bilan aloqadorlikda rivojlanib bormoqda.

Folklor buyuk mutafakkirlarning hikmatli soʻzlari, bitiklari bilan munosib bellashib, milliy tillarga jon baxsh etib kelgan. Bundan tashqari, mutafakkirlar oʻzlarining fikrlari qanotbaxsh tuygʻularga aylanib, butun bir avlodning kundalik muloqotida maqol va matallar bilan yonma–yon ishlatilsa oʻzlarini baxtiyor hisoblaganlar. Maqol va matallarda tafakkur ifodasi, milliy xususiyatlar yorqinroq nomoyon boʻladi. Matallarni oʻzi yaratilgan tilda bilish bizni begona til muhitida adashmasligimizda ulkan ahamiyat kasb etadi, oʻzaro tushunish va ishonch darvozasini ochadi. bizning til bilish sohasidagi obroʻ–eʻtiborimizni oshiradi.

II BOB

INGLIZ TILIDA FE'LLI IBORALAR STRUKTURASI VA QO'LLANILISH DOIRASI

2.1. Fe'lli iboralarning yasalihi

Ushbu bobda fe'llar yordamida yasaladigan iboralar, frazali fe'llar, ularning yasalihi, leksik, semantik, strukturaviy tahliliga alohida to'xtalib o'tamiz.

Fe'lli iboralar xususida so'z yuritilganda, ularning fe'lli birikmalardan farqini ko'rib o'tish lozim. Fe'lli iboralar tushunchasi fe'lli birikmalarga qaraganda kengroq mazmun kashf etadi. Ya'ni fe'lli birikmalardagi mazmun kamdan kam holatlarda yangi ma'no bersa, yoki o'z ma'nosiga bog'liq tushunchaga ishora qilsa, fe'lli iboralardagi fe'llar o'zi bilan birga kelgan til birligi bilan birgalikda o'z lug'aviy mazmuniga umuman bog'liq bo'lmagan yangi ma'noni yuklaydi.

Frazali fe'llar (I phrasal verbs), "*fe'l+ravish*" formulasida kelib, ravish va fe'lining birikishidan asosiy ma'noga qo'shimcha mazmun yuklaydi, ba'zi istesno holatlarda yangi so'z yasalihi holatlari ko'zga tashlanadi: *leave one's land* – vatanni tark etmoq, ketmoq ma'nosida qo'llanadi, *to leave* fe'lining lug'aviy ma'nosi *tark etmoq, jo'namoq; esidan chiqarib qoldirmoq* bo'lib, harakat fe'llari qatoriga kiritiladi. Bundan tashqari, *to return* – qaytmoq, *to set off* – jo'namoq, *to escape* – qochmoq, *to walk* – yurmoq, *to arrive* – yetib kelmoq, *to dance* – raqs tushmoq kabilar ham harakat fe'llari sarasiga kiradi. Harakat fe'llari sodda va murakkab zamonlarda ko'pincha yordamchi fe'llar bilan birgalikda qo'llaniladi. Masalan, "*When I was going to Tashkent, it was snowing*", ya'ni *Men Toshkent sari jo'nayotganimda qor yog'ayotgan edi*. Bu yerda *to go* – harakat fe'li hisoblangani uchun "*to be*" yordamchi fe'lining o'tgan zamondagi shakli bilan qo'llanilgan; *go out* – tashqariga chiqmoq mazmunini ifodalasa, *to go* fe'li yolg'iz kelganida bormoq, jo'namoq degan ma'nolarni beradi. Ushbu misoldan ko'rinib turibdiki, fe'lli birikmalarda ham badiiy bo'yoqdorlik tushunchasi mavjud. Shuning uchun ulardan adabiyotda keng foydalanishadi; *leave behind* birikmasi esa, biror joyni ortida jonash emas, balki aynan *esidan chiqarmoq, qoldirib ketmoq*

degan mazmunni ifodalaydi. Ushbu birikma leave – jo‘namoq fe’liga *behind* predlogini qo‘shish bilan yasalgan. Odatda *behind* predlogi o‘zbek tilidagi *ortida*, *ortiga* degan ko‘makchilarga ekvivalent hisoblanib, uning bajaradigan vazifalarini o‘zida mujassamlashtirsa–da, yuqoridagi birlikda, aksincha, yangi ma’no yuklash vazifasini bajarib kelmoqda.

Frazali fe’llar ko‘proq og‘zaki nutqda qo‘llanilib, yozma nutqda ikki xil shaklda qo‘llaniladi. Birinchi shaklda fe’llarga ravish qo‘shilib kelib, ma’noni ajratib ko‘rsatishga, kuchaytirishga xizmat qilsa, ikkinchi shaklda fe’l va ravish o‘rtasida boshqa bo‘lak kelib, uni to‘ldiruvchidan ajratib ko‘rsatishga xizmat qiladi. Ammo ba’zi matnlarda fe’lli birikmalar o‘ziga xos tushunchaga ishora berib keladi. Masalan, “*write down these phrases*” gapini to‘g‘ridan–to‘g‘ri tarjima qilsak, “*bu birliklarni pastga yozing*” degan mazmunni ifodalaydi, ammo bu yerda ushbu jumla “*bu birliklarni tezro yozib oling* yoki *ko‘chirib oling*” degan tarjimani beryapti, agar biz fe’lli iboralar yoki birikmalar xususida hech qanday bilim va tasavvurga ega bo‘lmasak, ingliz tilida yaratilgan matnlarni o‘zbek tilida mazmunli qilib yoritib bera olmaymiz. Yoki, “*to leave the door open*”, *ochiq eshikni tark etmoq* deya to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, balki *eshikni ochiq qoldirmoq*, deya tarjima qilsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu misollardan ko‘rinib turibdiki, har qanday birikmani bir butun birlik sifatida olib, ularning tarjimasida kontekstual va semantik jihatdan alohida yondashish lozim. Bundan tashqari bunday fe’lli birikmalar fe’l+predlog ko‘rinishida ham bo‘lib, ular quyidagicha yasaladi va qo‘llaniladi:

Frazali fe’llar fe’l va predloglar yoki fe’llar va ravishlardan tashkil topgan birikmalar hisoblanadi. Odatda, fe’llar predlog yoki ravishlarni o‘ziga qo‘shib yangi ma’no hosil qiladi. Frazali fe’llar quyidagilarga o‘xshash so‘zlarni o‘zi bilan biriktiradi: *on, up, in, out, over, off, with, down, away, about, after* kabilar. Frazali fe’llar ikkita yoki uchta so‘zlardan tashkil topgan bo‘ladi:

Frazali fe’llar	Tarjimasi
<i>give up</i>	<i>odatni tashlamoq</i>
<i>bring up</i>	<i>o‘stirmoq, ulg‘aytirmoq</i>

<i>look after</i>	<i>qaramoq, g'amxo'rlik qilmoq</i>
<i>turn down</i>	<i>pasaytirmoq</i>
<i>pass away</i>	<i>olamdan o'tmoq, o'lmoq</i>
<i>break into</i>	<i>buzib kirmoq</i>
<i>get up</i>	<i>o'rnidan turmoq, uyg'onmoq</i>
<i>sort out</i>	<i>saralab olmoq</i>
<i>looking forward to</i>	<i>umid bilan kutmoq</i>

Quyidagi misollarda frazali fe'llarning ma'nolarini yaqqol ko'rishimiz va frazali fe'llar yangi ma'no hosil qilishiga amin bo'lishim mumkin:

- *He was brought up by his aunt. (bring up – bola o'stirmoq)*
- *The old man passed away. (pass away – dunyodan ko'z yummoq)*
- *We sat off for London. (set off – sayohatga chiqmoq, yo'l olmoq)*
- *She is trying to give up smoking. (give up – odatni tashlamoq, to'xtatmoq)*
- *Never look down upon poor people. (look down upon – past nazar bilan qaramoq)*

Quyida frazali fe'llarning tarjimalarining o'zbek tilidagi ekvivalentlarini ko'rishimiz mumkin:

- *call around – tashrif buyurmoq*
- *call back – qaytib qo'ng'iroq qlimoq*
- *call on – yordam so'ramoq*
- *carry off – g'alaba qilmoq; kasallikdan o'lmoq*
- *catch on – mashhurlik qozonmoq*
- *charge with – jinoyatda ayblanmoq*
- *cheer up – undamoq, ruhlantirmoq*
- *chill out – dam olmoq*
- *clear away – manzilni tark etish*
- *close up – to'liq yopish, birlashtirish, yaqinlashish*
- *come down with – kasal bo'lmoq*

- *cry off* – *kelishuvni bekor qilish*
- *take after* – *o‘xshamoq*
- *tuck away* – *xavfsiz joyga qo‘yish*
- *turn up* – *ovozini ko‘tarish, kelish, paydo bo‘lish*
- *own up to* – *tan olish, bo‘yniga olish*
- *opt for* – *tanlamoq*
- *reckon on* – *eng kamida deb hisoblash*
- *run on* – *hisobiga yurmoq*
- *rope in* – *kimnidir yordam berishga jalb qilish*
- *set aside* – *sudda davo/hukmni bekor qilish*
- *show off* – *maqtanib ko‘z–ko‘z qilmoq*
- *wear out* – *tamom bo‘lgunicha ishlatish*
- *wear down* – *kuchsizlantirish*

Frazali fe’llarning to‘rtta turi mavjud:

- 1) O‘timli frazali fe’llar (Transitive Phrasal Verbs)
- 2) O‘timsiz frazali fe’llar (Intransitive Phrasal Verbs)
- 3) Ajraladigan frazali fe’llar (Separable Phrasal Verbs)
- 4) Ajralmaydigan frazali fe’llar (Inseparable Phrasal Verbs)

I. O‘timli frazali fe’llar

Gapda o‘zi bilan birga to‘ldiruvchi talab etuvchi frazali fe’llar o‘timli frazali fe’llar deyiladi. To‘ldiruvchisiz kelgan frazali gap to‘liq mazmun kashf eta olmaydi. Masalan:

- *She looks after the child.*
- *They carried on their work.*
- *The flood brought about a huge disaster.*
- *They have called off the meeting.*
- *Please, switch on the light.*
- *He is trying to give up smoking.*
- *She turned down his proposal.*

II. O‘timsiz frazali fe’llar

Gapda o‘zi bilan birga to‘ldiruvchi talab etmaydigan fe’llar o‘timsiz frazali fe’llar sanaladi. Bunday gaplarda frazali fe’l to‘ldiruvchisiz ham gapni mazmunini to‘liq hosil eta oladi. Quyidagi gaplarda to‘ldiruvchi ishtirok etmagan, lekin to‘liq mazmunga egadir. Masalan:

- The patient *passed away*.
- When do you *get up*?
- The thief *run away*.
- The kid is *growing up*.
- The car *broke down*.

III. Ajraladigan frazali fe’llar

Bunday frazali fe’llar gapda bo‘laklarga ajralgan holda ishlatiladi. Ko‘pincha fe’l qismi odatdagidek egadan keyingi o‘rinda kelsa, ravish yoki predloglar to‘ldiruvchi qismdan keyin keladi, ya’ni to‘ldiruvchi fe’l va ravish yoki predloglar o‘rtasida keladi. Bunday frazali fe’llar qo‘shilgan holatda ham, ajralgan holatda ham qo‘llana oladi. Masalan:

- Please *turn on* the light.
- Please *turn* the light *on*.
- I will *pick up* you from the bus–stop.
- I will *pick* you *up* from the bus stop.
- The people requested to *cut down* the prices.
- The people requested to *cut* the prices *down*.

O‘timli frazali fe’llarning ayrimlari ajraladigan bo‘lsa, yana ayrimlari ajralmaydigan. Tarjima jarayonida bunday fe’llar tarjimasiga alohida e’tibor qaratish kerak va tarjimondan alohida e’tibor talab etadi.

IV. Ajralmaydigan frazali fe’llar

Ajralmaydigan frazali fe’llar tarkibidagi fe’l o‘zi bilan birlashgan ravish yoki predloglardan ajralmagan holatda ishlatiladi. Agar bunday fe’llar gapda bir-biridan ajralgan holda ishlatilsa, gapning mazmuniga putur yetadi. Masalan:

- She *looks after* her children.

- The patient *passed away*.
- The flood *brought about* a huge disaster.
- You should *stay away* from bad friends.
- The thief *run away*.
- He is trying *to give up* smoking.

Yuqoridagi ajralmaydigan fe'llarni o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida diqqat bilan joylashuv o'rniga e'tibor qaratgan holda tarjima etish talab etiladi. Chunki bunday fe'llarning o'zni o'zgarishi gapga yangi mazmun yuklashi yoki butun gapni mazmunsiz qilishi mumkin.

to come from – *–lik, kelib chiqqan* ma'nolarni beradi. *To come* fe'lining lug'aviy ma'nosi esa, aslida, kelmoq deb tarjima qilinadi. *From* – *–dan* predlogi bilan birgalikda biror joyga mansublik hamda kelib chiqishni bildiradi. Masalan, “*Selena comes from England*” ya'ni “*Selena ingliz qiz, Angliyadan (Angiyalik)*” deya tarjima qilinadi. Ko'rinib turganidek, predlog va fe'lning birikishidan lug'aviy ma'noning doirasi kengaydi.

Speak about/of/on – haqida gapirmoq, xususida, borasida so'zlamok. *To speak* fe'li yakka holatda kelganda, gapirmoq degan ma'noni ifodalaydi, lekin *about/of/on* predloglarining birikishidan ma'noning o'zgarish hodisasi yuz beradi ya'ni biror kishi, narsa, vaziyat haqida so'zlamok degan keng ma'noni ifodalaydi. Masalan, “*Today we speak about Present Simple Tense*”, “*Bugun biz Hozirgi oddiy zamon xususida gaplashamiz*”.

To looking forward to – umid bilan kutib qolmoq, intiqlik bilan kutmoq. *To look* fe'li qaramoq, nazar tashlamoq kabi ma'nolarni bersa–da, *forward to* predloglari bilan birgalikda kelganda ma'noning o'zgarishi hodisasiga sabab bo'ladi. Masalan, “*I am looking forward to hear from you soon!*”, “*Sizdan tez orada eshtishni oldinga qarayapman*”, bu yerda *to looking forward to* – so'zini o'z ma'nosida tarjima qilingan. “*Sizdan tez orada yangilik eshitishni (javobingizni) intiqlik bilan kutib qolaman*”. Bu misolda esa, *to looking forward to* – oldinga qaramoq ma'nosida emas, balki (intiqlik bilan) kutib qolmoq qabilida ishlatilgan. Biz o'z navbatida, ushbu birikmani omonim birikma sifatida olishimiz va ma'nolar

xilma–xilligini solishtirishimiz mumkin. Masalan, “*I’m looking forward to see any human beings there*” birikmasida to looking forward to birikmasi oldinga qaramoq ma’nosida qo’llanyapti: “*Men biror tirik jon ko’rinib qolar deb oldinga qarayapman*”.

2.2. Frazelogizmlarda so‘zlarning birikishi va ularning tarjimai

«Dress» so‘zi «to dress a chicken» va «to dress a child» iboralarida bir xil ma’noga ega emas. «To dress a chicken» – *patini yulish*, «To dress a child» esa *kiyimlarini kiyish* ma’nosida qo’llanilyapti.

«Collocation» so‘zi bir so‘z boshqasi o‘rnida qo’llanilishini bildiradi. Ba’zi so‘zlar tez–tez bir-biri bilan birga keladi va ba’zilari bir-biri bilan birga kelishi kuzatilmaydi. Qaysi so‘zlar bir-biri bilan birga kelishini bilish matnni to‘g‘ri tushunish va to‘g‘ri tarjima qilish imkonini beradi. Ba’zi so‘zlar birga kela olmaydi, chunki bular haqiqatdan bir-biridan yiroqdir. Ingliz tilida *cat's wings* (mushukning qanotlari) demaymiz, lekin biz ***bird's wings*** (qushning qanotlari) deb qo’llaymiz. Faqatgina fantastikada *mushukning qanotlari* deb qo’lash o zini oqlashi mumkin. So‘zlarning birikishi turli tillarda farqianishi mumkin. Misol uchun: ingliz tilidagi *have* so‘zi “dream” so‘zi bilan qo’llaniladi: *I have a dream*. Biroq rus va o‘zbek tillarida bu birikma qo’llanilmaydi.

Har qanday tilda birikmalar yoki frazeologik birikma aniqdir. Ular hamma vaqt aniq tartibda yoki birgalikda qo’llaniladi va ularni to‘g‘ri tarjimasini bilish muhim. Ayniqsa ingliz tilidagi *spick and span, hale and hearty, to–for, now and then, neat and tidy* kabi birikmalarni va ularni aniq tarjimasini bilish kerak. Boshqa tillarda turg‘un birikmalar hisoblangan umuman turli birikmalar mavjud.

Aniq birikmalar odatda turg‘un tartibda birgalikda ishlatiladi. Agar tartibi o‘zgartirilsa, shu til so‘zlashuvchisiga natija notabiiy tuyiladi. Ingliz tilidagi *bread and Butter day and night* (boshqa tillarda *night and day* deyiladi), *knife and fork, black and white, black and blue, ladies and gentlemen, rant and rave* kabi birikmalarni tarjimon bilishi lozim. Ingliz tili so‘zlovchisiga agar kimdir “gentlemen and ladies” deydigan bo‘lsa, bu g‘alati tuyuladi. Ko‘p tillarda “*mother*

and father” deyishadi, lekin hech qachon “*father and mother*” emas. O‘zbek tilida “*ota va ona*” lekin “*ona va ota*” emas. Iboralar maxsus qo‘llanishlar bo‘lib to‘liq ma’noga egadir. Lekin birikmalarning ma’nosi yaxlit so‘zlarning ma’nosi bilan bir xil emas. Ular ko‘pgina leksik birliklar bilan bir xil ma’nosi bor bo‘ladi. Lekin aniq moslashish boshqa tilda ifodalanmagan bo‘ladi. Misol uchun, ingliz tilida *kick the bucket* o‘lim bilan bir xil ma’noga ega, lekin bu qandaydir hurmat ko‘rsatish maqsadida ham qo‘llaniladi. Quyidagi misolda ingliz va o‘zbek tilidagi so‘zlarning tarjimai berilgan, lekin har xil fellar qo‘llanilgan. Har qaysi tildagi shakli hali tabiiydir. lekin badiiy tomondan tarjima qilinsa, notabiiy tuyuladi.

To keep the law	Qonunga amal qilmoq
Ate wild honey	Asal ichdi
He was given wisdom	Aql o‘rsatdi

Shuning uchun iboralarni tarjima qilayotganda bunday hollarda e’tibor qaratish zarur. Tarjimon birinchi navbatda iboraning mazmunini aniq bilishi va iborani to‘liq ifoda qilish uchun tabiiy ekvivalentini topishi shart. Ba’zida so‘zlarda paydo bo‘ladigan umumiy ma’no birikmalariga asoslangan holda qo‘llanishlarni taxlil qilish mumkin. Misol uchun, quyidagi gaplarning qo‘llanishlari to‘g‘ridir.

Agar fe’l o‘zgartirilganda, natija noto‘g‘ri ma’noda yoki metafora ma’nosida boiib qolar edi. Birinchi ustunda shaxslarsiz ikkinchisida shaxslar bor qilib tarjima qilingan.

I washed the car	I bathed the baby
I rented a typewriter	He hired a secretary
The puppy yelps	The bay screams
He sheared the sheep	He cut the boy’s hair

Shunday qilib, frazeologik birikmalar o‘zbek tiliga so‘zma–so‘z tarjima qilinmaydi. Quyida ingliz frazeologik birikmalarining o‘zbek tilidagi birikmalarga moslashishi va ekvivalenti har xil bo‘lishi mumkin bo‘lgan misollar berilgan.

1. It gave me chance to sleep. I didn’t sleep last night – Hechqisi o‘q. qaytanga uxlab oldim, kecha mijja qoqmagan edim.

2. “Tonight you will tell me everything” – said Rinaldi – Kechqurun menga oqizmay–tomizmay hikoya qilib berasiz, – dedi Rinaldi.

3. When we swaggered by twirling his new mustache, everybody stopped to look and admire – U endi sabza ura bosh lagan mo‘ylovini burab, savlat to‘kib yurgan chog‘ida xamma odamlar unga qarashar edi.

4. I sacrificed everything for something that never come –Ro‘yobga chiqmagan ana shu narsani deb butun umrimni hazon qildim.

5. It was still raining hard – Yomg‘ir hamon chelaklab quyay

6. All right, I wash my hands of the matter. But I warn you all that a time's coming when you're going to feel sick whenever you think of this day. – Yaxshi bo‘lmasa! Agar shunday bo‘lsa, men qo‘limni yuvib qo‘ltig‘imga uraman. Ammo sizlarga aytadigan bir gapim bor: bir kun keladi bu qilmishingizga pushaymon bo‘lasi va qilgan ishingizni eslashning o‘zidayoq xushingiz ketib qoladi.

7. Odatda erkin birikmalarni tarjima qilish muammo tug‘dirmaydi. Agar erkin birikmalardagi so‘zlardan biri ko‘chma ma’noda qo‘llansa, uni tarjimada berish qiyinlashadi. Ingliz tilida iboralarining bir nechta turi mavjud bo‘lib, ularning har birini tarjima qilishda alohida yondashuv talab etiladi. Birinchi turdagi so‘z birikmasi sifat+ot turi. Ularning semantik strukturasi bir-biridan katta farq qiladi. Bu birikmada qo‘llangan otning xususiyatini va sifatini belgilaydi. Agar ingliz tilidagi «free educational institution» birikmasida free so‘zi institution so‘zi bilan aloqasi yo‘q, bu degani ba’zi hollarda sifatlar otning xususiyatlari va sifatidan tashqari u bilan bog‘liq tushunchalarni ham ifodalashi mumkin. Yana birmisol. Ingliz tilidagi «a medical man» birikmasini tarjima qilishda «a stout person» birikmasini tarjima qilishda qo‘llangan usuldan foydalanib bo‘lmaydi. Ingliz tilidagi «a stout person» o‘zbek tiliga «to‘ladan kelgan yoki semiz odam» deb tarjima qilinadi. Ingliz tilidagi «a medical man» birikmasini o‘zbek tiliga tarjima qilishda so‘zma–so‘z tarjima to‘g‘ri kelmaydi. Bu yerda ikki so‘z bitta ma’noni ifodalaydi va u «shifokor» deb o‘giriladi. O‘zbek tilida ham bunday bitta ma’noni ifodalovchi birikmalarni ko‘plab uchratish mumkin. Masalan, «tog‘ qo‘yi». «malla sochli», «devor soati» va hokazo. Bir otni bir necha sifat aniqlab kelishi mumkin

boʻlgan hollar ham uchraydi. Bunda aniqlanmish boʻlib ot kelishi mumkin. Masalan, «temir xotin», «ichkari uy kaliti» kabilar.

Ingliz tilida aksariyat hollarda otlami aniqlab kelgan soʻzlar (bular ot ham, sifat ham boʻlishi mumkin)ni qaysi biri ekanligini aniqlash mushkul boʻladi. Masalan, «retail philanthropy business» birikmasi nima maʼnoni anglatganini bir qarashda anglash oson emas, chunki uni ikki xil tushunish mumkin. Oʻzbek tilida bunday hollar deyarli uchramaydi.

Ingliz iboralarining yana bir xususiyati otni aniqlab kelgan sifat tushirib qoldirilgan hoʻlatlar ham uchraydi. Masalan, “dry pruning” iborasini olsak. Bu iborani soʻzma–soʻz tarjimasi “quruq butash” boʻladi. Soʻz birikmasining maʼnosi daraxt shoxlari qumq boʻlgan paytda qiiingan butashni ifodalaydi.

Tarjima jarayonida soʻz birikmalarining semantik hamda bilish xususiyatlarini hisobga olish lozim. Bunda birinchi navbatda tarjima qilib olish tavsiya etiladi, chunki qanday aniqlanmish qoʻllanmasin hammasi otni aniqlab keladi va ot gapda eng muhim maʼnoni ifodalaydi. Tarjimonning keyingi vazifasi gapdagi maʼno guruhlarini ajratib olish hisoblanadi. Gapning maʼno guruhi ajratib olingach, ot va sifat oʻrtasidagi grammatik aloqalar turi aniqlanadi. Otdan oldin kelgan soʻz va soʻzlar uni aniqlab keladi, ularni agar gap ingliz tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilinsa, uni oʻzbek tiligrammatikasi qoidalari asosida va aksincha, agar gap oʻzbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilinsa, ingliz tili grammatikasi normalarigaasoslanib tarjima qilinadi. Aksariyat hollarda ingliz va oʻzbek tili erkin birikmalarining tartibi ikki tilda ham bir-biriga mos kelishi mumkin:

“Strategic Arms Limitation Treaty” – Srategik qurollarni cheklash shartnomasi.

Bunday tarkibda aniqlovchi boʻlgan iboralarni tarjima qilishning bir nechta usuli mavjud:

1. Ingliz tilidagi ot oldidan kelgan aniqlanmish oʻzbek tilida ham shu tartibda tarjima qilinadi: «a cheap ticket» – «arzon chipta». «an expressive word» –»ifodali soʻzlar».

2. Ingliz tilida ot+ot shakli kelgan ibora ham xuddi yuqoridagidek tarjima

qilinadi, bunda o‘zbek tilidagi iboraga bir nechta ibora to‘g‘ri kelishi mumkin: «opposition leader» –»muxolifat lideri», «muxoliflar lideri», « oppozitsiya lideri».

3. Otni aniqlab kelgan inglizcha iboralar o‘zbek tiliga bogiovchilar yordamida tarjima qilinadi: «youth unemployment» – «yoshlar o‘rtasidagi ishsizlik».

4. Ingliz tilidagi aniqlanmish va ot o‘zbek tiliga izohlovchi orqali tarjima qilinishi mumkin: «his millionaire friend» – «uning millioner do‘sti».

5. Ba’zan ingliz iboralaridan biri qismi tasviriy yo‘l bilan, ya’ni bir nechta so‘z yordamida tarjima qilinishi mumkin: «a bargain counter» – «narxi tushirilgan (pasaytirilgan) mollar do‘kon (bo‘lim)i».

6. Ingliz filming tarkibida aniqlovchi bo‘lgan iboralarni tarjima qilishda aksariyat hollarda ibora tarkibidagi muayyan so‘zni otni boshqa otga o‘zgartirish zarur va bu tavsiya etiladi. Masalan, «free educational institutions» o‘zbek tiliga «bepul o‘qiladigan oliy o‘quv yurtlari»deb tarjima qilinishi lozim, chunki «free» so‘zi «institutions» otini emas, balki «educational» so‘ziga aloqasi bor. Xuddi shu fikr «Parliamentary Labour Party» birikmasiga ham aloqador. Bu iborani o‘zbek tiliga «Leyboristlar partiyasining parlament fraksiyasi» deb tarjima qilish o‘zbek tili grammatikasining qoidasiga to‘liq muvofiq keladi.

Tarjimani to‘liq berish maqsadida ba’zi hollarda aniqlovchini ayni shu gapda qo‘llangan boshqa ot bilan tarjima qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol tariqasida «dismal array of titles» birikmasini ko‘rib chiqaylik. Bu iborani o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilish ma’noga putur yetkazadi, shuning uchun uni «dismal» so‘zining aniqlovchisi «titles» otini emas, balki «array» otini aniqlab kelganligi uchun birikmani «eng yomon (eshitiladigan yoki quloqqa yoqmaydigan) laqablar yig‘indisi» deb tarjima qilishga to‘g‘ri keladi.

7. Aksariyat hollarda ingliz tilidagi aniqlanmishli iboralar o‘zbek tiliga ravishli iboralar bilan tarjima qilinadi:

to be

to have

to give + A + N phrase

to take

Yuqoridagi namunalarga quyidagi misollarni keltirish mumkin : «to have a good sleep» – «yaxshi (tiniqib) uxlamok», «to take a deep breath» – «chuqur nafas olmok» “to give a loud whistle” – «qattiq hushtak chalmoq», «to have a good lunch» – «yaxshi (mazali taom yeb) tushlik qilmoq» va shu kabilar.

8. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda shunday holler uchraydiki turli ekstralingvistik omillar ta’sirida tarkibida fe’lli qismlar mavjud gaplar va ularning tuzilishi butunlay o‘zgarib ketadi.

Masalan, «He had «I don't know expression in his face» – «Uning yuzi, uni hech narsa bilmasligini ifodalab turardi».

Bu borada O.V. Petrova shunday deb yozadi: “Tarjimaning muayyan usulini tanlash asosan ibora komponentlari o‘rtasidagi semantik aloqalar, grammatik norma hamda tarjima tilidagi so‘z birikmasini hosil qilish xususiyatlari bilan belgilanadi” (Petrova.006, 18;)

Ingliz tilining o‘ziga xos aniqlovchi va aniqlanmishdan tashkii topgan iboraiari mavjud bo‘lib, ular ichki predikatsiyasiga ega. Ularni tarjimasi asosan iboralarning stilistik xususiyatlariga bog‘liq. Agar bunday aniqlovchilar yoyiq hamda ko‘p qismdan tashkii topgan bo‘lsa, ularodatda o‘zbek tiliga to‘ldiruvchi ergash gaplaryordamida tarjima qilinadi. Aniqlanmishli ibora tarkibida ot xususiyatini ifodalovchi so‘zlar bo‘lgan hollarda esa ular bitta ot orqali tarjima qilinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi: “a grab–it–and–run ... counter” – yo‘lakay kirib ketiladigan mayxona»yoki «gazakxona».

Agarda biz frazalagizmlar tarjimasiga e’tibor beradigan bo‘lsak, aksariyat hollarda ma’no mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda har bir maqol, matal va idiomaga mos o‘z tilida muqobil variantlarini topishi yoki so‘zma–so‘z tarjima qilishi mumkin. Shunga ko‘ra, aynan o‘xshash maqol yoki idiomani ham bir qancha o‘rinlarda, ma’nosiga qarab, turlicha tarjima qilsa bo‘ladi. Binobarin, har qanday hollar uchun ham mos keladigan tayyor variantini berish juda qiyin. Turli

tillarda bir ma'noni ifodalovchi frazalagizmlar bir xil asosga yoki tamoman boshqa ob'ektlarga tayangan holda yaratilgan bo'lishi mumkin:

As you sow, you shall mow.

Nima eksang shuni o'rasan.

To be on thin ice.

Hayoti qil ustida turmoq.

Ko'rinib turibdiki, har ikkala tilda yuqorida keltirilgan matal va idiomatik birliklarning barcha komponentlari bir – biriga mos tushgan. Yana bir misolni ko'rib chiqamiz;

Speak of the devil and he will appear,

Bo'rini yo'qlasang qulog'i ko'rinadi.

Lekin ana shu maqolni o'zbek tiliga “Shayton haqida gapirsang, shayton ko'rinadi” tarzida o'girsak, inglizlar aytmqchi bo'lgan mantiqiy fikr o'z aksini topmaydi. “Shayton” so'zi o'zbek tilida tom ma'noda “mug'ombir”, “hiylakor” kabi ma'nolarni anglatadi. Ammo o'zbek tilida “bo'rini yo'qlasang, qulog'i ko'rinadi”, yoki betamiz insonlar haqida gap ketganda, qo'pol ma'noda aytilganda “eshakni yo'qlasang, qulog'i ko'rinadi” degan maqollar bo'lib, yuqoridagi inglizcha maqolni mana shu maqollar bilan tarjima qilish mumkin. Inglizcha va o'zbekcha maqollarni qiyosiy tahlil qilsak, ularning bir-biridan farq qilishini ko'ramiz.

Inglizcha maqolning obrazli asosini “devil” (shayton) tashkil etgan bo'lsa, o'zbek tilidagi maqolning obrazli asosini “bo'ri”, “qulog'i” so'zlari tashkil etmoqda. Badiiy tarjimaning murakkabligi ham aynan mana shunda, har bir tilning o'zga tillardan farq qiladigan o'ziga xos milliyligi mavjud.

Demak, tarjimon tarjimaning ijodiy jarayon ekanligini anglashi va o'zga tildagi har bir detalga ijodiy yondashishi lozim. Shundagina, to'laqonli badiiy yetuk tarjimaga erishishi mumkin.

Maqol, matal va idiomalar tarjimasida uch prinsip hukm suradi:

1) asl nusxadagi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent qidirib topish;

2) asar o'girilayotgan tildan monand, muqobil variant topib qo'yish;

3) frazeologizmlarni aynan, so'zma – so'z tarjima qilish. Har uchala hol ham uchramagan taqdirda tarjimon ularning umumiy ma'nosini aks ettirish bilan kifoyalanishga majbur bo'ladi. Maqol va matallarni tarjima qilishda imkon qadar yuqori natijalarga erishish maqsadida quyidagi yo'llar(usullar)ni qo'llash mumkin:

1. Ekvivalent. Ingliz tilidagi iboraga ma'no jihatdan ham, shakl jihatdan ham aynan mos tushadigan tarjima:

Art is long, life is short. San'at abadiy – umr qisqa. A good name is better than richness. Yaxshi nom boylikdan afzal. First think, then speak. Avval o'yla, keyin suyla.

2. Analog (o'xshashlik). Ma'no jihatidan ingliz tilidagi variantiga mos, lekin shakl asosi bo'yicha undan butunlay yoki qisman farq qiluvchi tarjima usuli:

Business before pleasure. Mehnat, mehnatning tagi rohat. What is done cannot be undone. O'tgan ishga salovat. Never put off till tomorrow what you can do today. Bugungi ishni ertaga qo'yma.

3. Tasvirlash yoki tasviriy tarjima. Ingliz tilidagi iborani erkin so'z birikmasi orqali berish. Bu tarjima metodi o'zbek tilida xuddi shu iboraga mos ekvivalenti topilmagan hollarda qo'llash mumkin. *An unfortunate man would be drowned in a tea-cup.*

Kambag'alni tuyaning ustida ham it qopadi.

A birds in the hand is worth two in the bush

Uzoqdagi quyruqdan yaqindagi o'pka yaxshi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Frazeologik birliklar nutqda tayyor holda uchraydi, ular turg'un birikmalar bo'lib, funksional va semantik jihatdan bo'linmas yoki ajralmas birliklardir.

Ingliz, o'zbek va rus tillarining so'z birliklarining tez o'sishi natijasida yangi frazeologizmlarni o'z vaqtida lug'atlardan topa olmaymiz va tarjimon ularni lug'atsiz tarjima qilishiga to'g'ri keladi. Bu eski frazeologik birliklarni

V.Kuninning «Ingliz–rustili frazeologik lug'atidan topa olishimiz mumkin. Tarjimon mustaqil holda frazeologiyani asosiy nazariyasi masalalarini hal qila

olish, frazeologik birliklarni to'g'ri tanlay olish va ularning ifodaviy–uslubiy tarjimadagi vazifalarini belgilab bera olishi kerak.

Frazeologik birliklarning tarjimasining asosiy qiyinchiligi shundaki, lug'atlarning hech biri matnda frazeologik birikmalarni qo'llanishidagi rang–barangliklarni ta'minlay olmaydi. Kuninning «Ingliz–rus tillari frazeologik lug'atida frazeologizmlarning ko'pchiligining tarjimasi bor lekin bu lug'at bilan Tarjimada to'liq adekvatlikka erishib bo'lmaydi. Badiiy tarjimaning murakkabligi ham aynan mana shunda, har bir tilning o'zga tillardan farq qiladigan o'ziga xos milliyligi mavjud.

Demak, tarjimon tarjimaning ijodiy jarayon ekanligini anglashi va o'zga tildagihar bir detalga ijodiy yondashishi lozim. Shundagina, to'laqonli badiiy yetuk tarjimaga erishishi mumkin. Frazeologik birliklarni tarjima qilish tarjimada o'sha asarning badiiy qiymatini, zavqini aynan saqlashga imkon bersa bu albatta yaxshi ammo, aksincha bunday iboralarni xom, chala, suniy tarjima qilish uni boshqa tilga yetaklab o'tib mayib qilishga olib keladi. Boy va go'zal o'zbek tili qudratli va nafis ingliz tilidagi hamma har qanday frazeologik birliklarni tarjimada to'liq aks ettirishga qodir.

III BOB

INTERNATSIONAL FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TARJIMADA BERILISHI

3.1. Frazelogik birliklarning tarjimada berilishi

Biz avvalombor xalqaro frazeologik birliklar haqida gapirishdan oldin u o'zi nima ekanligi haqida so'z yuritsak maqsadga muvofiq bo'lardi. Turli tillarning o'ziga xos bo'lgan turlicha turg'un birliklari mavjud bo'lib ular bir tilda bir mano anglatga boshqa bir tilda esa aksincha boshqa ma'noni yoxud xuddi shu ma'noni anglatishi mumkin qachonki bu birliklar barcha tilda mavjud bo'lsa. Haqiqatdan ham bir tilda mavjud bo'lgan frazeologik birliklar boshqa tilda mavjud bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin. Bunday holatlar biz uchun odatiy tusga kirgan. Biz bunga ingliz va o'zbek tillarida ham qiyoslab o'rganishimiz mumkin. Misol uchun o'zbek xalqi mehmondo'st xalq bo'lganligi uchun ularida shunday bir maqol bor: Mehmon otangdek ulug'.

Agar biz bu maqolni ingliz tiliga

Guest is great as like your father.

deb tarjima qilib bersak, ular bu frazeologik birlikni tushunmasligi mumkin. Chunki bu birlik faqatgina o'zbek xalqiga xos bo'lgan birlikdir. Bazi bir frazeologik birliklar faqat bir tilgagina xos bo'lishi mumkin. Va bunday frazeologik birliklar xos so'zlar (realialar) dan iborat bo'lgan turg'un birliklar deb yuritiladi. Shu bilan birgalikda barcha tilda bir xil ma'no ifodalovchi frazeologik birliklar ham mavjuddir, Bular barchamizga malum bo'lgan va har kuni tilimizdan tushurmay yuradigan frazeologik birliklar ya'ni "salomlashish va xayrlashish" birliklaridir. Bu birliklar barcha dunyo xalqlarida mavjud bo'lgan turg'un iboralaridir. Bu iboralar bor ekan barcha xalqlar o'rtasida do'stlik a'loqalari uzulmaydi va aksincha mustahkamlanib boradi. Chunki biz xuddi shu birliklar orqali nafaqat bir-birimizni taniymiz balki butun dunyo xalqlari bilan tanishamiz va hamkorlik a'loqalarini o'rnatamiz.

Biz quyida bir qancha xalqaro tillardagi salomlashish va xayrlashish frazeologik birliklarini ko'rsatib o'tamiz:

English	Uzbek	Russian
Hello	Salom	Privet
How are you?	Ahvolingiz qanday?	Kak dela?
Nice to meet you	Sizni ko'rganimdan xursandman	Rad znakomstvu
Good luck!	Ishlarizga omad	Udachi
See you soon	Tez orada ko'rishguncha	Do svidaniya
 Catalan	Bulgarian	 Danish
Hola	Zdraveyte	Hej med dig
Que tal?	Kak ste?	Hvordan gaar det?
Encantat de coneixe't	Priyatno mi e da se zapoznaem	Hyggeligt at moede dig
Bona sort	Kasmet!	Held og lykke
Fins aviat	Do skoro vijdane	
 Dutch	 Finnish	 French
Hallo	Hei	Bonjour
Wie giet's	Kuinka voit?	Comment vas tu?
Freut mich sehr!	Kiva tavata	Je suis heureux de faire votre connaissance
Veel geluk	Pelionnea	Good luck
Auf wider sehen		A la prochaine
 German	 Greek	 Italian
Hallo	Geia sou	Ciao

Wie geht es dir?	Pos paei?	Come stai
Schoen dich zu sehen	Xarika gia tin gnorimia	Buona fortuna
Viel Glueck	Kali tihi	Gioco di fortune
Bis Bald		E solo un arrivederci
 Japanese	 Norwegian	 Persian/Farsi
Konnichiwa	Hei	Dorood
Hajimemashite	Hvordan har du det	Khoob hasteed?
Douzo yoroshiku		Az molaaghaate shoma khoshbakhtam
Kouun wo inorimasu	Lykke til	Movafagh baasheed!
Sayounara		Bezoodde meebeenamet
 Spanish	 Swedish	 Turkish
Hola	Hej	Merhaba
Como estas?	Hur maar du?	Merhaba
Tanto gusto	Trevligt att traeffas	Iyi sanslar
Buena suerte	Lycka till	
hasta pronto		

Tilning leksik birliklariga nisbatan birmuncha murakkab tarkibli lisoniy vositalari bo‘lmish frazeologik birliklarni tarjimada adekvat talqin etish tarjima amaliyotining o‘ta murakkab va, shu bilan birga, juda mas’uliyatli masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki frazeologik birliklar nutqning badiiy–tasviriy vositalari sifatida fikrning oddiy, betaraf bayonidan ko‘ra ko‘proq turli–tuman uslubiy vazifalarni ifoda etishda ishtirok etadilarki, ularning ushbu vazifalarini hisobga olgan holda, ularni tarjimada bejirim talqin etishga intilish badiiy asarning obrazli hamda hissiy-tasviriy qiymatini qayta yaratish yo‘lidagi jonbozlik bilan chambarchas bog‘liqdir.

Frazeologik birliklarni tarjima qilishning o'ta murakkab amaliy jarayon ekanligi asosan mazkur birliklar tabiatiga – ularning leksik, semantik va qurilish jihatlaridan murakkabligiga bog'liqdir. Boz ustiga, talay frazeologizmlar milliy xususiyatga egadirlarki, bu hol ham tarjimonlar oldiga qator amaliy qiyinchiliklarni ko'ndalang qilib qo'yadi. Asl nusxa va tarjima tillari frazeologizmlarining tabiatini qiyosiy o'rgangan holda, ular orasidagi mazmuniy–uslubiy muvofiqlik holatlarini aniqlash va tarjima jarayonida ularning birini ikkinchisi vositasida talqin etish yo'l va imkoniyatlarini belgilash to'laonli tarjima yaratish uchun zamin hozirlaydi. Tarjima tilida tanlangan muayyan frazeologik birlikning asl nusxa tarkibida uchragan frazeologizmga ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos kelishi yoki kelmasligini ilmiy–matniy tahlil asosidagina aniqlash mumkin.

“Frazeologik birliklar bir tildan ikkinchi tilga asosan to'rt xil yo'l bilan – asliyat tilidagi birlikka komponentlar tarkibi, grammatik qurilishi hamda ma'no va uslubiy vazifasi mos ekvivalentlar, boshqa xossalari farq qilgani holda, ma'no va uslubiy vazifasi o'xshash muqobil variantlar, kalka usulida va tasviriy yo'sinda tarjima kilinadilar”.

1. Ekvivalentlar vositasida tarjima qilish turli xalqlar frazeologik birliklarining bir-birlariga har jihatdan o'xshashligi aksariyat hollarda xalqlar turmush sharoitlari, urf-odatlar va mantiqiy mushoxadalaridagi mushtaraklik bilan izohlanadi. Zero, boshqa til vositalari singari frazeologizmlar ham turli–tuman umuminsoniy fikr bayon qilish me'yorlari va hayotiy kuzatishlar asosida vujudga keladilar. Natijada turli tillar barqaror so'z birikmalari bir xil obrazli asosdan iborat bo'lib qoladilar.

Bu xil frazeologik birliklar tarjimada bir-birlarini bermalol almashtira oladilar. Masalan, inglizcha «Cold war», «An open hand», «To suck somebody's blood» kabi barqaror birliklar o'zbekcha «Sovuq urush», «Ochiq qo'l», «Birovning qonini so'rmoq» frazeologizmlarining mutlaq ekvivalentlari bo'lib, tarjima jarayonida ularning biri ikkinchisini barcha nutqiy vaziyatlarda bermalol almashtiraverishi mumkin.

Ba'zi ikki til frazeologik ekvivalentlari ayrim matniy xolatlarda bir-birlarini almashtira olmaydilar. Ko'p ma'noli ikki til frazeologik birliklarining ayrim ma'no va uslubiy vazifalari o'xshasa, ba'zilar farq qiladi. Masalan, bir-birlariga ham moddiy, ham ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan o'xshash inglizcha «The dogs bark, but the caravan goes on» va o'zbekcha «It hurar, karvon o'tar» birliklarining doim bir xil ma'no va uslubiy vazifa ifodasi uchun qo'llanilishlari mumkin bo'lgani holda, baynalminal xususiyatga ega bo'lib, jahonning ko'pchilik tillarida uchraydigan «Temirni qizig'ida bos» frazeologizmi o'zining inglizcha ekvivalenti «Strike while the iron is hot» barcha kontekstlarda ham mos kelavermaydi. O'zbekcha birlik «ishni o'z vaqtida bajarmoq» kabi tushunchaning obrazli ifodasi uchun qo'llanilsa, inglizcha birlik mazkur ma'nodan tashqari yana «qulay imkoniyatdan foydalanmoq» tushunchasi ifodasi uchun xam qo'llaniladiki, bunday holda unga o'zbek tilida o'zgacha moddiy tarkibli ma'nodosh ibora qidirib topish zarurati tug'iladi.

Tarjimada har qaysi til vositasi tarkibidagi komponentlarning an'anaviy grammatik shakliga rioya qilishgina bayon etilgan fikrning nutq madaniyati doirasidagi ifodasini vujudga keltiradi. O'zbekcha «Devorning ham qulog'i bor», «Ko'rpangga qarab oyoq uzat», «Qo'lni cho'ntakka solib yurmoq» barqaror so'z birliklarining tarjimada inglizcha «Walls have ears», «To stretch one's legs according to the coverlet», «To keep hands in pockets» birliklariga son shakli jihatidan moslab «Devorlarning quloqlari bor», «Ko'rpaga karab oyoqlarni uzatmoq», «Qo'llarni cho'ntaklarga solib yurmoq» tarzida berilishi o'zbek tili frazeologik birliklari me'yorlarining buzilishiga, binobarin, an'anaviy frazeologik birliklar ifoda etadigan obrazli umumlashmalarining barbod bo'lishiga olib keladi.

Piter Abraqamsning «Chaqmoqli yo'llar» romani tarjimasida rus san'atkorining o'z tili qonuniyatidan kelib chiqib, iborani inglizcha ekvivalentiga mos tarzda o'girgani o'zbek tarjimonini chalg'itmagan: u masalaga o'zbek tili me'yori doirasida yondashib, nazarda tutilgan komponentni (etik) birlik sonda ishlatish yo'li bilan chalg'ituvchi g'ovni bartaraf etgan:

«You'll lick my shoes, when I've done with you», Gert promised .

Hali etigimni yalataman, shoshmay tur, – deb qoldi Gert.

Ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos ayrim frazeologik ekvivalentlar leksik tarkib jihatidan bir-birlaridan bir yoki ikki komponent tafovut qilsalarda, mantiqan ularning leksik tarkiblari o'rtasida farq yo'q. Jumladan, o'zbekcha «Qanday shamol uchirdi?», «Barmoq bilan sanarli» frazeologizmlarining inglizcha ekvivalentlari bo'lmish «What wind blows you here?», «Can be counted on the fingers of one hand» birliklari tarkiblaridagi komponentlari o'zbekcha birliklarnikidan ikkitadan komponentga ortiq (you here, of one hand).

Biroq bu tafovut mantiqiy xususiyat kasb etmaydi. Chunki o'zbekcha birliklarni talaffuz etganda inglizcha vositalar tarkibidagi ortiqcha komponentlar ham ko'zda tutiladi, ya'ni «Qanday shamol uchirdi?» deganda «Qanday shamol uchirdi sizni bu yerga?», «Barmoq bilan sanarli» deganda «Bir qo'l (o'ng qo'l) barmoqlari bilan sanarli» kabi leksik tarkiblar ko'zda tutiladi. Yoki, o'zbekcha «Alangaga yog' quymoq» frazeologizmi bilan uning inglizcha ekvivalenti «To bring oil to fire» birligi tarkiblaridagi «quymoq» va «to bring» so'zlarining bir-birlariga lug'oviy ekvivalent bo'lmagan holda, ular o'zaro kontekstual uyg'un bo'lib, bir xil xarakterat ifodasi uchun xizmat qiladilar: «Alangaga yog' keltirmoq» (inglizcha) xam «Alangaga yog' quymoq»dir.

Bundan tashqari, bir xalq o'z frazeologizmi tarkibida hayotida bir xil tushunchani ifoda etadigan qator ma'nodosh so'zlarning biridan foydalansa, ikkinchisi boshqasidan foydalanishi mumkinki, natijada bir xil ma'no va uslubiy vazifa ifodasi uchun xizmat qiladigan ikki til frazeologik ekvivalentlarining bittadan komponentlari farq qilib qoladi. Chunonchi, o'zbeklar ishning puxta, rejali bo'lishi lozimligi kabi tushunchani obrazli ifodalash uchun tikish niyatida bichilayotgan matoning yetti o'lchab, so'ngra kesilishi (yetti o'lchab, bir kes!) zarurligi kabi mubolag'a asosida vujudga kelgan barqaror so'z birikmasidan foydalansalar, bu o'rinda inglizlar lafzida qo'llaniladigan frazeologizm tarkibidagi son o'zbek tilidagidek «yetti» emas, balki «uch»dir (Measure thrice and cut once). Eng og'ir yumushni inglizlar tasavvurida «ot» (To work like a horse), o'zbeklar nazarida «eshak» (Eshakday ishlamoq) bajaradi.

Ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan o'xshash ekvivalentlardan goho bir tildagisining obrazlilikni yuzaga keltiradigan tayanch komponentda ikkinchisidagidan bir komponentga kam bo'lib, fikrni nutq madaniyati doirasida ifoda etish mas'uliyati bu yerda ham har qaysi til me'yoriga rioya qilish zaruratini tug'diradi. Masalan, o'zbeklar hech qachon «Non haqi» o'rniga inglizlar singari «Non va tuz haqi» (By bread and salt) deb qasam ichmaganlaridek, inglizlar ham «Birovning nonini yemoq va tuzini ichmoq» (To eat somebody's bread and salt) o'rniga o'zbeklardek «Birovning tuzini ichmoq» demaydilar.

2. Muqobil variantlar yordamida tarjima qilish. Tarjima tilida aslyatda qo'llanilgan frazeologik birlikka ekvivalent frazeologizm topilmagan taqdirda, adekvatlik ko'p hollarda muqobil variantlar yordamida amalga oshiriladi. Ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos ikki til frazeologik birliklari qator hollarda bir-birlaridan leksik tarkibda yo butunlay, yoki tayanch komponentlaridan boshqa unsurlarda farq qiladilar. Bunday frazeologik birliklar o'zaro muqobillik munosabatida bo'ladi.

Muqobil variantlar tarjimada bir-birlarini bimalol almashtiraveradilar. Chunki mazkur birliklar tarkiblarida ularning o'zaro almashinuvlariga xalal beradigan milliy xususiyatli so'zlar uchramaydi. Ammo tarjimonlar goho o'z tillarida mavjud imkoniyatdan unumli foydalana olmasdan, ifodaning noadekvat talqiniga yo'l qo'yadilar. Masalan, Jek Londonning «Martin Iden» romanida «biror narsa to'grisida yaxshi axborotga ega bo'lmoq» ma'nosining obrazli ifodasi uchun «To have something at one's finger-ends» (biror narsa panjasining uchida bo'lmoq) frazeologik birligi qo'llanilgan bo'lib, u rus tiliga «Znat kak svoi pyat palsev» muqobil varianti orqali adekvat o'girilgan. Biroq o'zbek tarjimoni ruscha frazeologizmga har jihatdan mos, inglizcha iboraga esa muqobil «(biror narsani) besh qo'lday bilmoq» birligidan foydalanmasdan, obrazli ifodani tasviriy yo'l bilan talqin etib, muallif g'oyasini oddiy bayon darajasiga tushirib qo'ygan. Vaholanki, aslyatda Ran Martinning o'ziga tanish kasb – dengizchilik ustida shunchaki gapirgani haqida emas, balki uning ushbu kasbni «suv qilib ichib yuborgani», uning bu iqtidori esa mister Morzning uni yuqori ko'tarib maqtangani to'grisida

bormoqda. Demak, aslyat mazmuniga ko'ra, mister Morzni Martinning bilimdonligi qoyil qoldirgan bo'lsa, tarjima matniga ko'ra uni qahramonning dengizchilik kasbi bilan shunchaki tanishligi kabi kishini qoyil qoldirishga asos bo'la olmaydigan oddiy ma'lumot hayratga soladi:

...they talked about the sea as a career, a subject which Martin had at his finger ends. Suhbat Martin uchun juda ham tanish kasb ustida dengizchilik kasbi ustida bordi.

Goho ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos muqobil variantlarning tayanch komponentlarigina bir-birlarinikiga o'xshash bo'lib, boshqa so'zlari farq qiladi. Bunday o'zaro mukobil frazeologik birliklar odatda bir xil voqea–hodisa, harakat–holat, xislat–xususiyatning obrazli yoki his–hayajonli ifodasi uchun yaratilgan bo'lib, bir-birlariga to'la mos keladilar. Jumladan, inglizcha «To burn one's house to get rid of the mice» frazeologii birligining ham, uning o'zbekcha «Burgaga achchiq qilib ko'rpani kuydirmoq» muqobil variantining ham tayanch komponentlari «kuydirmoq» (to burn) bo'lib, ikkala lisoniy birlik ham bir xil harakatni arzimagan sabab bilan jahl ustida biror nojo'ya, nomaqbul ish qilib qo'yishni obrazli ifodalasa, tayanch komponentlari shoshgan (hasty) so'zidan iborat «Hasty climbers have sudden falls», «Shoshgan qiz erga yolchimas» birliklarining uchalasida ham bir xil xususiyat shoshqaloqlik tanqid qilinadi. Mazkur vositalar bir-birlarining ma'no va uslubiy vazifalarini to'la qoplay oladilar

Voynichning «So'na» romanidan keltirilgan quyidagi jumla tarkibida «oxirgi marta butun kuch–quvvatini sarflagan holda tirishib ko'rmoq» tushunchasining obrazli ifodasi uchun «To fire one's last shot» frazeologik birligi qo'llanilgan bo'lib, uning «Pustit v xod svo y posledniy argument» va «Oxirgi qurolini ishga solmoq» muqobil variantlari tarkiblaridagi tayanch komponentlarning ham xuddi aslyatdagidek «oxirgi» (the last) ekanligi iboralarning bir-birlariga to'la muvofiq kelishlarida muhim ahamiyat kasb etgan:

Finding all her arguments unavailing against his dogged resolve to go his own way, she fired the last shot. Keltirilgan dalillari So'naning asov o'jarligini sindirolmaganini ko'rgandan keyin, oxirgi qurolini ishga soldi.

O'zlarining frazeologik ma'nolariga ko'ra o'xshash, grammatik qurilish jixatlariga nisbatan o'zaro yaqin ko'pchilik mukobil variantlar leksik tarkib tomondan bir-birlaridan batamom farq kiladilar. Ularning ko'pchiligi shaklan milliy, mazmunan baynalmilaldirlar. Shakli bilan ular o'zlarining muayyan milliy tilga mansubliklarini tasdiqlasalar, mazmuni bilan jahon madaniyati va sivilizatsiyasi maxsuli ekanliklarini namoyon qiladilar. Masalan, biror kamyob, qimmatbaho, orzu qilib yetib bo'lmaydigan narsani inglizlar «Pigeon's milk» (kabutarning suti), ruslar «Ptiche moloko» desalar, o'zbeklar «Anqoning urug'i» (afsonaviy qush tuxumi) deydilar. Aslzoda jamiyat vakillari inglizlar va ruslar nazarida «Blue blood» (zangori kon), «Golubaya krov» hisoblansalar, o'zbeklar tasavvurida «Oq suyak»dirlar. «Hamma odamlar bir xil emas» tushunchasini inglizlar obrazli tarzda «All bread is not baked in one oven» (barcha non bir tandirda yopilmaydi), o'zbeklar «Besh qo'l baravar emas» deydilar.

Masalan, o'zbekcha «Kiradigan eshigingni qattiq yopma» iborasi mazmun jihatdan inglizcha «Never cast dirt into that fountain of which thou hast sometime drunk» birikmasiga muqobil ko'rinadi.

Ma'lumki, frazeologik birliklar odatda xayotiy kuzatishlar zaminida paydo bo'ladi. Xalqlarning moddiy dunyoni tasavvur etishida esa o'xshashlik ko'zga tashlanadi. Ammo xech bir tilda frazeologik birliklar ob'ektiv borliqning barcha jabhalarini kamrab ola olmaydi. Masalan, muayyan tushunchani obrazli yoki his-hayajonli ifoda etadigan bir til frazeologik birligi o'zga til frazeologiyasi tizimida o'zining muvofiq ekvivalentiga yoki mukobil variantiga ega bo'lmasligi mumkin. Agar ba'zan asliyat va tarjima tillarida mavjud bo'lgan ayrim frazeologik birliklar mazmuniy-uslubiy jixatdan bir-birlariga mos kelsalar—da, ular ochiq—oydin ko'zga tashlanib turadigan milliy bo'yoqqa ega bo'ladilarki, bu xususiyati ularning tarjimada bir-birlarini almashtirishlariga yo'l qo'ymaydi.

3. Kalka usulida tarjima qilish. Hech bir til frazeologik birliklari hayotdagi barcha jihatlarni qamrab ololmasliklari tufayli bir tilda muayyan tushunchani ifoda etadigan muayyan frazeologizm o'zga tilda o'z ekvivalentiga yoki muqobil variantiga ega bo'lmasligi mumkin. Bunday xolda ko'proq tarjima amaliyotining

kalka, ya'ni so'zma-so'z tarjima usuliga murojaat qilinadi. Bu yo'l vositasida tarjima tilida hosil qilingan birikma iboraviy shakl kasb etib, tabiiy jaranglasa, nazarda tutilgan ma'no va uslubiy vazifani aks ettira oladi. Bunday paytda nafaqat adekvatlik ta'minlanadi, balki tarjima tili lug'at tarkibining boyishi uchun ham imkoniyat vujudga keladi. Barqaror birlikning so'zma-so'z tarjimasi tufayli hosil bo'lgan birikmani ayrim hollarda tarjima tili me'yor qabul qila olmasligi, natijasida xarfxo'rlikning yuzaga kelib qolishi ehtimoli ham mavjud. Bu holda adekvatlikning yaratilishi haqida ham, tarjima tili lug'at tarkibining boyishi to'g'risida ham so'z bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun ham tarjima amaliyotining sermaxsul usullaridan bo'lmish kalkani xarfxo'rlikdan tubdan farqlash zarur.

Harfxo'rlikdan farqli o'larok, frazeologik kalka asliyatdagi birlik ma'nosi va uslubiy vazifasini to'la saqlab qoladi. Bunday paytda asliyatning badiiy-estetik, g'oyaviy-mazmuniy xususiyati ham qayta yaratiladi. Bunga kalkaning yangi til sharoiti qonuniyati xususiyatining kat'iy hisobga olinishi asosida amalga oshirilishi tufayli erishiladi. Shuning uchun ham tarjima amaliyotining sermaxsul usullaridan hisoblanmish kalkani asliyatning mazmunan va shaklan beo'xshov ifodasi bo'lmish harfxo'rlikka tenglashtirib bo'lmaydi.

Odatda umuminsoniy kuzatishlarga, kishilarning o'zaro yaqin yoki o'xshash madaniy negiziga xamda bir xil madaniy-tarixiy huduga mansub, ko'p asrlik hayot tajribalariga asoslangan frazeologizmlar kalka qilinadi.

Kirib kelgan tillarida to'la o'zlashib ulgurgan kalkalargina fuqarolik kasb etadilar. Hozirgi zamon o'zbek tili lug'at tarkibiga nazar tashlar ekanmiz, unga juda ko'p lisoniy birliklarning boshqa tillardan kirib kelganligining guvohi bo'lamiz. Jumladan, «Sovuq qurol» birligi inglizcha «Cold arms», «Hech bo'lguncha, kech bo'lsin» birligi «Birovga chuqur qazisang, o'zing tushib ketasan» birliklarining o'zbekcha kalkalari bo'lib, ular allaqachon uzbek tili lug'at boyligining faol fuqa-rolariga aylanganlar.

Modomiki kalka jarayonida o'zga til iborasi xijjalab o'girilar, shu yo'l bilan uning semantik-uslubiy jihati va sintaktik qurilishi o'zlashtirilar ekan, demak

yorqin koʻzga tashlanib turadigan mazmuniy qurilishga ega barqaror soʻz birikmagina kalka qilinadi. Masalan, ibora maʼnosi bevosita tarkibidagi komponentlariniig maʼnolaridan kelib chiqmaydigan frazeologik chatishmalar, shuningdek, oʻzi mansub boʻlgan xalq milliy xususiyatini aks ettiradigan boshqa iboralar kalka qilinmaydi. Tarkiblarida etnografik tushunchalar nomlari, leksik va semantik arxaizmlar mavjud, shuningdek, millat tarixi, xalq turmushi va uning dini va eʼtiqodi bilan bogʻliq soʻzlar qoʻllanilgan frazeologik birliklar ham kalka qilinmaydi.

Kalka usuliga murojaat qilishda shuni ham hisobga olish lozimki, asliyat frazeologizmi obrazliligi, taʼsir kuchi, iboraning nutqda koʻp qoʻllanilishi natijasida birmuncha kuchsizlangan, siyqalangan boʻladi. Hijjalab qilingan tarjima oqibatida esa iboraning obrazliligi, hissiy–taʼsirchanligi «tirilib», u jozibadorligi jihatidan asliyatdagi birlik darajasidan goho ustun boʻladi. Bu holat ham hamma vaqt kalka usuliga murojaat qilaverishni taqozo etmaydi. Shuning uchun mazkur usulga murojaat qilishda asliyat frazeologizmida mujassamlashgan qoʻshimcha axborot darajasini va kalka tufayli hosil boʻlgan ibora kasb etadigan shunday ustun vazifani eʼtiborga olish zarur.

Tarjima amaliyoti frazeologik birliklarni uzbek tiliga kalka usulida oʻgirishning quyidagi yoʻllariga eʼtiborimizni tortadi.

A) Asliyatdagi birliklarga leksik tarkib va uslubiy vazifa jihatlaridan toʻla mos kalkalar (ikki til ifodalarining grammatik qurilishlari goxo bir-birlaridan farq qili–shi mumkin). Agar asliyatda qoʻllanilgan frazeologik birlikda mujassamlashgan obraz hayotiy kuzatishlarga hamda barchaga maʼlum va mashxur tabiat xodisalariga asoslangan, shu bilan birga tarjima tili soxiblariga yaxshi tanish voqea–hodisalar zaminida vujudga kelgan boʻlsa–yu, ibora tarkibidagi unsurlar orasida mantiqiy bogʻlanish koʻzga yaqqol tashlanib tursa, bunday frazeologik birliklarning hijjalab qilingan tarjimasi asliyatdagi birlik mazmuniy–uslubini va pragmatik vazifasini qayta yaratadi, oʻzbek tilida xosil qilingan soʻz birikmasi chetdan kiritilganday, til tizimi uchun begonaday tuyulmaydi. Masalan, tuyaning dumi kaltaligi tufayli yerga tegmasligi, xoʻkizning tugʻmasligi, takaning sut

bermasligi ma'lum haqiqat. Shu asosda «hech qachon» tushunchasining obrazli ifodasi uchun uzbek tilida «Tuya–ning dumi yerga tekkanda», «Ho‘kiz tuqqanda» frazeologik birliklari yaratilgan.

So‘zma–so‘z tarjima natijasida hosil bo‘lgan birikma frazeologiya xususiyatiga ega bo‘lib, asosidagi majoz tarjima tili vakillariga yaxshi tushunarli ekanligi tufayli asliyatda nazarda tutilgan ma’no va uslubiy vazifani aynan aks ettira oladi. Masalan, suvda suzib yurgan baliqni qo‘l bilan tutib olishning nihoyatda mushkulligi ruslarga ham, o‘zbeklarga ham ma’lum bo‘lganligi sababli, Voynichning «So‘na» romani personaji Martinni nutqidagi muqoyasaga asoslangan frazeologizmning (As slippery as an eel) kalka usulida amalga oshirilgan tarjimasi natijasida hosil bo‘lgan birikmalar barqaror lisoniy vositalar singari tabiiy jaranglaydi. Binobarin, o‘zbekcha birikmaning tilda turg‘unlik kasb etib, umumxalk tili boyligiga aylanishiga to‘la asos bor:

The man's as slippery as an eel; I don't trust him. Baliqqa o‘xshash sirpanchiq, – men bunga ishonmayman.

B) Tarjima tilida mavjud bo‘lgan barqaror lisoniy vositalar shakl, ma’no va uslubiy vazifalariga suyanib, asliyatdagi frazeologik birliklarni kalka qilish. San’atkorlar ba’zan asliyatdagi barqaror so‘z birikmalarining tarjima tilida muqobil variantlari bo‘lishiga qaramasdan, kalka usuliga murojaat qiladilarki, hosil bo‘lgan birikmalar o‘sha mavjud muvofiq vositalar tarkibida mujassamlashgan hayotiy haqiqat va obrazli umumlashmalar asosida tabiiy jaranglaydi. Masalan, rus va uzbek tillarida «yaxshini yomondan farqlamoq» tushunchasini obrazli ifoda etadigan «Otlichat beloe ot chernogo» va «Oq bilan qorani ajrata bilmoq» frazeologik birliklari mavjud bo‘lsada, «Hamlet» (V. SHekspir) tragediyasi tarjimonlari shu tushunchani obrazli ifoda etadigan inglizcha «To know a hawk from a handsaw» birligini mazkur birliklar bilan almashtirmasdan, kalka yo‘li bilan «Lochinni qarkaradan ajratmoq» tarzida o‘girib, adekvatlikni yuzaga keltirganlar:

4. Tasviriy usulda tarjima qilish. Muayyan frazeologik birlikni goho na ekvivalent, na mukobil variant va na kalka yordamida o‘girishning imkoni topiladi. Bunday hollarda san’at–korlar noiloj tarjima amaliyotining tasviriy usuliga muro–

jaat kiladilarki, mazkur usul yordamida birliklar ma'nolari erkin ma'nodagi so'z yoki so'z birikmalari vositasida tushuntirib ko'yakolinadi. Ushbu holatlarda aslyatdagi frazeologik birliklar tarkibida mujassamlashgap uslubiy vazifalarning qayta yaratilishi haqida so'z bo'lishi mumkin emas. Ushbu holatlarda bayon etilgan fikrning ta'sir kuchi pasayadi, anik va sikikligi yo'koladi. Bu esa o'z navbatida aslyat matni badiiy kiymatining pasayishiga olib keladi. Chunonchi, «To make a mountain out of a molehill» birligi o'zining sinonimi «to exaggerate» so'zidan, «Silent as the grave» birligi «silent» so'zidan o'zlarining obrazli-liklari bilan fark kiladilar. Bas shunday ekan, inglizcha «to exaggerate» so'zini o'zbek tiliga lug'aviy ekvivalenti «bo'rttirib yubormoq», «silent» «jim» so'zlari orqali tarjima kilish mumkin bo'lgani holda, yukorida keltirilgan frazeologik bir-liklarni o'zbekchaga «bo'rttirib yubormok», «jim» kabi uslubiy betaraf so'zlar vositasida tarjima qilish inglizcha birliklarda mujassamlashgan obrazlilikning so'nishiga olib keladi. Mazkur iboralarni «Ninaday narsani tuyaday qilmoq» muqobil varianti hamda «Qabrday jim» kalkasi orqali tarjima qilishgina vazifaviy adekvatlikni yuzaga keltiradi.

Shekspirning «Yuliy Sezar» tragediyasida qo'llanilgan «It is Greek to me» frazeologizmini o'zbek tarjimoni birlikni adekvat talqin etishning imkonsizligini tushunib, noiloj ma'nosini tasviriy yo'l bilan tushuntirib qo'ya qolgan, natijada muallif matnida mujassamlashgan obrazlilik so'nib, uslubiy betaraf ma'no belgisi kasb etgan:

... but those that understood him smiled at one another and shook their heads; but, for mine own part, it was Greek to me. Uning so'zini faxmlaganlar birlariga qarab, bosh qimirlatib, kulishib qo'ydilar. Mening uchun esa u jumboq edi.

Ammo ba'zan aslyatda yaratilgan qo'shimcha ma'lumotni tarjimada tasviriy yo'l bilan xam qisman tiklash imkoniyati mavjud. Bu, bir tomondan, badiiy nutq tarkibida deyarli barcha ma'nodor lisoniy vositalarning estetik-ta'sirchanlik kasb etishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, ko'p qo'llanilish oqibatida ayrim

frazeologik birliklar obrazli-ta'sirchanlik xususiyatining ma'lum darajada nursizlanib qolishiga vobastadir.

Ko'pincha tarjimonlar aslyatdagi frazeologik birliklar uslubiy vazifalarini qayta yaratish maqsadida og'zaki nutqqa xos turli-tuman ma'no kuchaytiruvchi vositalarga murojaat qiladilarki, agar mazkur so'zlar zaruriy ohang bilan talaffuz qilinsagina personaj nutqiga obrazlilik baxsh etgani holda, aslyat o'rnini ma'lum darajada qoplashi mumkin. Baribir, bunday vositalar tasviriy usuldan kam farq qilishlari tufayli, qator hollarda aslyatdagi obrazli frazeologizmlar vositasida yaratilgan uslubiy ta'sirchanlik o'rnini bosolmasliklari mumkin.

3.2 Xorijiy tillardan o'zlashgan hamda hozirgi inglizzabon yozuvchilari asarlarida uchraydigan frazeologik birliklar tarjimasi

Xorijiy tillardan o'zlashtirilgan frazeologizmlar ingliz tili frazeologiyasini to'ldirib turuvchi manbalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, lotin va fransuz tillaridan ko'plab frazeologizmlar o'zlashtirilgan. Bundan tashqari, yunon, ispan, italyan va boshqa tillardan o'zlashtirilgan iboralar ham mavjud. O'zlashtirilgan frazeologik birikmalarning ko'pchiligi o'zida kitobiylik xususiyatini namoyon etadi. O'zlashtirish usuliga ko'ra frazeologizmlar besh guruhga ajratiladi.

So'zma-so'z o'zlashtirilgan iboralar. Bu guruh o'z navbatida ikki kichik guruhlarga bo'linadi:

Ingliz tilida so'zma-so'z o'zlashtirilgan iboralar mavjud, lekin ba'zilarining asli ingliz tilida ishlatilmaydi. Masalan: *baptism of fire* – jangovor cho'qintirish (fr. *Baptême du feu*), *make believe* – mug'ombirlik qilmoq (fr. *Faire croire*).

Bu kichik guruhga ba'zi maqollar ham aloqadordir: *dead men don't bite* – o'liklar tishlamaydi (qiy. O'liklarning joni yo'q), bu ibora ingliz tiliga yunon tilidan lotin tili orqali olib kirilgan (lot. *Fames optimum condimentum* (Sitseron)).

Ingliz tilida o'z aslidek ishlatiladigan so'zma-so'z o'zlashtiriladigan iboralar: *man is to man a wolf*. – gadoning dushmani gado bo'ladi (lot. *Homo homini lupus est*), Qadimgi Rim shoiri Plavtaning nutqidan olingan. *Second to none* – tengi yo'q

(lot. *Nulli secundus*), *with a grain of salt* – shubhali, ishonchsizlik bilan (lot. *Cum grano salis*).

Asliga ba'zi o'zgartirishlar kiritilib olib kirilgan frazeologik birikmalar. Bu tillardagi mavjud leksemalar tartibining buzilish holatini nazorat qilib turadi, misol uchun, *an iron hand in a velvet glove* – yumshoq joyda yashi uxlaysan (fr. *Une main de fer dans un gant de velours*), fransuz tilidagi so'z tartibida aniqlovchi otdan keyin keladi, ingliz tilida esa aksincha. *If you run after two hares, you will catch neither* – ikkita quyoning ortidan yugursang, ikkovini ham qo'ldan chiqarasan. (lot. *Duos qui sequitur le pores neutrum capit*). Bu maqolning nemis va fransuz tilidagi variantlarini kuzatsak ularda ham lotin tilining so'z tartibi o'zgarganini ko'rishimiz mumkin. Fransuz tilida: *qui court deuse lievres n'en prend point*; nemis tilida: *wer zwei Hasen hetzt fangt keinen*.

Ba'zan asl tartibning o'zgarishi leksik almashishlar hisobiga murakkablashadi: *by all that's blue!* – jin ursin! Fransuz tilidagi *parbleu* – *par Dieu* – Allohga qasam evfimizmi o'rnida ingliz tildagi frazeologik birikmalar fransuz tilidagi asli bilan qiyoslaganda tarkibit qismlar qo'shib ketganligini ko'rishimiz mumkin.

Bir qismi o'zgartirilib, bir qismi esa to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinib olib kirilgan frazeologik birikmalar. Masalan: *a propos* (yoki *apropos*) *of nothing* – hech narsadan hech narsa yo'q, bekordan bekorga (fr. *A propos de rien*).

Qadimgi tilning so'z tartibi bo'yicha olingan frazeologik birikmalar. Shunday tuzilishga ega quyidagi noyob frazeologik brlik misol sifatida xizmat qilishi mumkin: *omnium gatherum* – aralash–quralash; barcha–barchasi, barcha yig'ilganlar (lot. *omnium gatherum*). *Omnium* – *omnis*ning qaratqich kelishigi, ko'plik shakli, *gatherum* – qadimgi tildagi eskirgan so'z: *gather+um* (*omnis* – hamma).

Klassik asosdagi qadimgi frazeologik birikmalar. Bunday frazeologik birikmalar antik mifologiyalarga, qadimgi dalillarga asoslangan frazeologizmlarning katta qismini o'z ichiga oladi. Masalan: *the cask of Danaids* – Danaidning bochkasi, tubsiz bochka.

Sheksprizmlar

Ingliz tilining lugʻat tarkibini boyitishda Uilyam Shekspir yaratgan frazeologizmlar soniga koʻra “Bibliya” dan soʻng ikkinchi oʻrinni egallaydi. Soʻnggi maʼlumotlarga koʻra ularning soni 105 taga yetgan. [89;20] Koʻplab sheksprizmlar Shekspir asarlarida bir marta uchraydi va ularning shakllari shunday qotib qolgan. Quyida keng tarqalgan frazeologizmlarning bir nechtasini keltiramiz:

The be-all and end-all – hayotni toʻldiradigan narsa, hayotdagi barcha narsa.

Cakes and ale [114;174] – (s.s.) pirojnoye va pivo ; tashvishsiz quvonch, hayotdan zavqlanmoq.

Eat somebody out of house and home [101;121] – insonni uning hisobidan yashab inqirozga uchratmoq; tekintomoq, tekinxoʻr.

A fool's paradise [111;141] – hayoldagi baxt, hayolot dunyosi.

Gild refined gold [103;143] – oltinga yana oltin suv yuritmoq; biror narsani chiroyli, yaxshiroq qilishga harakat qilmoq, garchi u busiz ham yaxshi boʻlsada.

Give the devil his due [102;132] – dushmanga tan bermok.

The green-eyed monster [110;130] – (k.u.) yashil koʻzli berahm odam; rashkchi.

Have an itching palm [100;110] – poraxoʻrlik qilmoq; tamagir va qurumsok.

Lay it on with a trowel – boʻrttirib maqtamoq, haddan tashqari maqtamoq, maqtovni haddan oshirib yubormok, yolgʻondakam tilyogʻlamalik qilmoq. Ibora Shekspir tomonidan majhul nisbatdagi feʼl bilan ishlatilgan:

Celia. Well said:that was laid on with a trowel. [97;63]

Hozirda esa bufrazeologik birikmaning feʼli aniq nisbatda ishlatiladi.

She continued to flatter him She got a little private amusement by seeing how much he should swallow. She laid it on with a trowel.[114;54]

Shekspirdan tashqari koʻplab boshqa yozuvchilar ingliz tili frazeologiyasini boyitishgan. Lekin baʼzi iboralarning muallifini aniqlash mumkin emas, chunki ular xalq ijodi hisoblanadi. Baʼzi frazeologizmlarda biz alohidalikni kuzatamiz, bunday frazeologizmlarni biror yozuvchi yoki shoir birinchi marta adabiyotga olib kirgan boʻladi. Adabiyotda u yoki bu frazeologizmning kirib kelishini har doim

ham uning tuzilishi belgilab bermaydi, chunki muallif asar yozilgan davrning ruhiga mos keluvchi va o'sha davrda keng tarqalgan iboradan foydalangan bo'lishi mumkin. O'lis davrlarda yashab ijod qilgan yozuvchilar yaratgan iboralarga muallif tanlash juda ham qiyin hisoblanadi, masalan:

XX asr

Jon Berri

Little Mary – (s.h.i.) oshqozon, qorincha. Jon Berri pyesasining nomi.

Redyard Kipling

The white man's burden – oq tanlilar zulmi, go'yoki mustamlakachilarning sivilizatorlik vazifasi – mustamlaka siyosati imperialistlarining o'z xalqini munofiqona himoya qilishi. Kiplingning she'rlaridan birining nomidan olingan.

A flannelled fool – flanel kostyumdagi ahmoq. Boy tanbal sportchilarning ustidan kulish uchun o'ylab topilgan laqab.

XX asrda yaratilgan ko'plab iboralar u yoki bu sababga tarixdagi mashxur shaxslarning turli fikr–mulohazalariga borib taqaladi. Misol uchun:

Keep one's powder dry – poroxni quruq saqlamoq, jangga tayyor bo'lmoq, shay bo'lib turmoq. Ibora Oliver Kromvel tomonidan Danbar yaqinida shotland monarxiyachilari bilan jang qilayotgan qo'shinlarini ruhlantirish uchun aytilgan. Bu ibora 1650–yil 3–sentabrda qo'shinlar daryoni kechib o'tishi oldidan aytilgan edi:

Put your trust in God, but be sure to keep your powder dry.

Die in the last ditch – o'lmaguncha chekinmaslik, yiqilsa ham dushman tomonga yiqilmoq, jonini ayamay himoya qilmoq, oxirigacha kurashmoq. Faylasuf Tomas Gobbsning so'nggi so'zlari *a leap in the dark* bo'lgan. Ibora ingliz tiliga mangulikka qadam qo'yishlik, o'lim ma'nolari bilan kirib kelgan. *Die in the last ditch* iborasi Angliya qiroli Vilgelm III Oranskan tomonidan yozib qoldirilgan.

There is one certain means by which I can be sure never to see my country's ruin: I will die in the last ditch. [47;58]

The schoolmaster is abroad – keng yoyilib borayotgan ta’lim. Kam qo‘llaniluvchi *the schoolmaster is abroad* iborasi birinchi Henri Piter Brum, keyinroq Buyuk Britaniya lord–kansleri tomonidan ishlatilgan.

The schoolmaster is abroad, and I trust him, armed with his primer, against the soldier in full military array.

Catch the whigs bathing and walk away with their clothes – (s.s.) vigilar cho‘milayotganda behosdan bostirib kirib, ularning kiyimlarini olib chiqib ketmoq; boshqa partiyalar siyosatini kuzatishni boshlamoq. Kam ishlatiluvchi *catch the whigs bathing and walk away with their clothes* iborasini 1845–yil 28–fevralda Quyi Palatada B.Dizraeli o‘z nutqida qo‘llagan. Shuningdek u o‘z nutqlarida *be on the side of the angels* iborasidan ham foydalangan.

Be on the side of the angels – an’anaviy nuqtai nazarda turmoq. Keyinchalik bu ibora aybsiz jabr chekkan odam tomonida turmoq ma’nosiga ega bo‘ldi. Ibora birinchi marta 1864–yil 25–noyabrda Darvin nazariyasi haqidagi bayonotda ishlatilgan.

The question is this: Is man an ape or an angel? My lord, I am on the side of the angels.

Terminological inexactitude – (evf.) texnik hatolik, nohaq gap, yolg‘on. U.Churchill bu iborani 1906–yil 22–fevraldagi Quyi Palatadagi nutqida ishlatgan.

A boy in the backroom – 1) ilmiy tekshirish institutidagi maxfiy hodim; 2) ishchi, ekspert, mutahassis (biror kimsaning soyasida mashxur bo‘lishga harakat qiluvchi odamlar haqida). Ibora 1941–yil 24–martda e’lon qilingan harbiy mutahassislar yetishtirish haqidagi lord Biverbrukning nutqidan olingan:

To whom must praise be given ... to the boys in the backroom. Keyinchalik paydo bo‘lgan variant: *a backroom boy.*

The wind of change – o‘zgarishlar shamoli. Iborani Angliya bosh vaziri G.Makmillan Afrikadagi ijtimoiy g‘alayonlarga nisbatan ishlatgan.

Noma’lum mualliflar tomonidan tuzilgan u yoki bu iboralarning mashxur bo‘lishiga taniqli siyosiy arbob va yozuvchilarning bunday iboralardan foydalanishi katta yordam bergan. Masalan:

Bag and baggage – bor ko‘ch–ko‘roni bilan, Dastlab ibora quyidagi ko‘rinishda bo‘lgan:

With bag and baggage – harbiy bo‘linma va askarlarning barcha qurol–aslahalari bilan, Ibora XVI asrdan beri ma‘lum va Yevropada turklar hokimiyati haqida U.Gladstonning nutqida bu iboradan foydalangani tufayli keng omma tomonidan ishlatilib kelinmoqda.

Let the Turks now carry away their abuses in the only possible manner, namely by carrying away themselves ... One and all, bag and baggages shall, I hope, clear out from the province they have desolated and profaned.

Luis Kerroll taxallusi bilan nom qozongan ingliz matematigi va yozuvchisi J.Dodjson tomonidan ishlatilgan ba‘zi frazeologizmlarning mashxur bo‘lishiga uning barchaga ma‘lum “Alisa g‘aroyibotlar mamlakatida” kitobi shak–shubhasiz yordam bergan. Shunday frazeologizmlarga, allaqachon bizning yodimizda qoolib ulgurgan *tweedledum and tweedledee* dan tashqari *grin like a Cheshire cat* hamda *as mad as a hatter* yoki *as mad as a March hare* lar ham iboralarga tegishlidir.

Grin like a Cheshire cat – istehzoli iljaymoq, og‘zini bor kenglikda ochib jilmaymoq.

As mad as a hatter yoki *as mad as a March hare* – butunlay aqldan ozgan, es–hushi o‘zida emas, butunlay esini yeb qo‘ymoq. Buuch ibora L.Kerrollning kitobidagi jilmayayotgan Cheshir mushugi, telba telpakdo‘z va esi past mart quyonlari bilan uzviy bog‘liqlikdda. Har uchala iboralar ham L.Kerrollgacha ma‘lum bo‘lgan, lekin *as mad as a hatter* iborasining etimologiyasi noma‘lumligicha qolmoqda.

Ba‘zi frazeologik birikmalar u yoki bu asarlarning personajlari bilan bog‘langan bo‘ladi. Shu turdagi frazeologizmlarning bir qanchasini quyida keltirib o‘tamiz:

Hamlet with Hamlet left out, shuningdek *Hamlet without the Prince of Denmark* – martabasini yo‘qotgan Hamlet; izlaganda labbay topilmaydi.

A lady Bountiful – patronessa honim; xayr–ehson ishlari bilan shug‘ullanuvchi honim. D.Farkarning *The Beaux Stratagem* pyesasi qaxramonining ismidan olingan.

The faithful Adam – sodiq sobiq xizmatkor. Shekspirning *As You Like It* komediyasining qaxramonlaridan birining nomiga qurilgan.

Man Friday – Jumavoy, sodiq va sadoqatli xizmatkor. Daniel Defoning *Robinson Crusoe* romanidagi sodiq xizmatkorning nomidan olingan.

A Mark Taply – Mark Tepli, har qanday vaziyatda ham umidsizlikka tushmaydigan odam. Charlz Dikkinsning *Martin Chuzzlewit* nomli romanining qaxramonlaridan birining nomidan olingan.

An Oliver Twist – Oliver Tvist, kam ulush oladigan odam. Ch. Dikkinsning shu nomli romanining bosh qaxramoni nomiga qurilgan.

An Uriah Heep – Uriya Hip; munofiq fitnachi. Ch. Dikkinsning *David Copperfield* romanining qaxramonlaridan birining ismidan olingan:

... *a sort of factotum to the King and the Lord Bishop, to whom he belonged “body and soul and boots”, an Uriah Heep.*

Mark Twain.

The real Simon Pure – tabiiy, xaqiqiy. S. Sentliverning (1667–1723) *A Bold Stroke for a Wife* asarining qaxramonlaridan birining nomiga qurilgan.

A Sherlock Holmes – Sherlok Holms; bilimdon, topqir josus. Artur Konan Doyl hikoyalarining qaxramoni.

Ba’zan badiiy asar qaxramonlarining u yoki bu sifati frazeologizmlarda o‘z ifodasini topadi, masalan:

Cardelia’s gift – (k.u.) past, muloyim ayol ovozi. Shekspirning *King Lear* tragediyasi qaxramoni Kordeliyaning ovoziga o‘xshatish.

Ba’zi ingliz tilining frazeologizmlari bolalar she’riyatidan kirib kelgan.

Jack Horner – mag‘rur bolakay.

Little Jack Horner

Sat in a corner,

Eating a Christmas pie;

*He put in his thumb,
And he pulled out a plum,
And said,
“What a good boy am I?”*

Jack Sprat – arziyas odam, notovon.

Tom Thumb – barmoq bo‘yi bola, pakana, past bo‘yli = sinjaloq. Qadimgi she‘riy ertak qaxramoni bo‘lgan juda kichkina odamcha nomidan olingan.

Ba‘zi frazeologik birikmalar bolalar o‘yinlari va qo‘shiqlari bilan bog‘langan, masalan:

Tom Tiddler’s ground – serdaromad ish, yog‘li joy. Ibora qadimgi bolalar o‘yinlaridan biri bo‘lgan *Tom the Idler’s ground* nomidan kelib chiqqan. Bu o‘yinda Tom Tiddler deb ataluvchi boshqaruvchi o‘zi joylashgan yerga hech kimni kirgizmaydi. Boshqa bolalar shu paytda qo‘shiq kuylab turishadi:

Here we are on the Tom Tiddler’s ground

Picking up gold and silver.

Keep the home fires burning frazeologik birikmasi Birinchi jahon urushi davrida mashxur bo‘lgan qo‘shiqdan olingan.

Ba‘zi frazeologizmlar matbuotda nashr qilingan karikaturalar bilan bog‘liq.

Colonel Blimp – nihoyatda eskilikka yopishib olgan odam, ahmoq, qovoqbosh. 1891–yilda karikaturist rassom Devid Lou yaratgan obraz.

The curate’s egg – ba‘zi ijobiy tomonlari mavjud yaramas narsa yoki odam. 1895–yildagi *Punch* nomli ingliz hajviy jurnalida qavm ruhoniysining yordamchisi haqida rasmi hajviya bosib chiqarilgandi. Unda o‘sha qavm ruhoniysining yordamchisi yepiskopdan palaxta tuxum olgan va bu tuxumlarning biri sehrli ekanligini bilib qolgan.

Drop the pilot – (dengizchilik) lotsmanni ishdan bo‘shatmoq. Ko‘chma ma’noda: haqiqiy maslahatchini rad etmoq. Iboraning paydo bo‘lishi 1890–yilda *Punch* jurnalida Vilgelm II ning talabiga ko‘ra Bismarkning iste’fosiga bag‘ishlangan karikaturaga borib taqaladi.

The old lady of Threadneedle Street – (h.i.) Trednidl Stritli qariya honim. Trednidl ko'chasida joylashgan ingliz bankiga omma tomonidan berilgan nom. Ibora 1797–yildan Jeyms Gilreyning karikaturalarida ko'rina boshlagan. Karikaturada qulflangan sandiq ustida o'tirgan qari ayolningoltinlarini egallashga urinayotgan bosh vazir Kichik Uillyam Pitt aks ettirilgan. Pitt Napoleon bilan bo'layotgan janglar uchun qari ayollardagi pullarni qo'lga kiritishga harakat qilgan. Karikaturaning ostida shunday yozuv bo'lgan: *the old lady of Threadneedle Street is in danger*.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

Xorijiy tillardan o'zlashtirilgan frazeologik frazeologizmlar frazeologiyasini to'ldirib turuvchi manbalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, lotin va fransuz tillaridan ko'plab frazeologizmlar o'zlashtirilgan. Bundan tashqari, yunon, ispan, italyan va boshqa tillardan o'zlashtirilgan iboralar ham mavjud. O'zlashtirilgan frazeologik birikmalarning ko'pchiligi o'zida kitobiylik xususiyatini namoyon etadi. O'zlashtirish usuliga ko'ra frazeologizmlar besh guruhga ajratiladi.

Ko'pincha tarjimonlar asliyatdagi frazeologik birliklar uslubiy vazifalarini qayta yaratish maqsadida og'zaki nutqqa xos turli–tuman ma'no kuchaytiruvchi vositalarga murojaat qiladilarki, agar mazkur so'zlar zaruriy ohang bilan talaffuz qilinsagina personaj nutqiga obrazlilik baxsh etgani holda, aslyat o'rnini ma'lum darajada qoplashi mumkin. Baribir, bunday vositalar tasviriy usuldan kam farq qilishlari tufayli, qator hollarda asliyatdagi obrazli frazeologizmlar vositasida yaratilgan uslubiy ta'sirchanlik o'rnini bosolmasliklari mumkin.

Frazeologik birliklarni tarjima qilishning o'ta murakkab amaliy jarayon ekanligi asosan mazkur birliklar tabiatiga – ularning leksik, semantik va qurilish jihatlaridan murakkabligiga bog'liqdir. Bundan tashqari, talay frazeologizmlar milliy xususiyatga egadirlarki, bu hol ham tarjimonlar oldiga qator amaliy qiyinchiliklarni ko'ndalang qilib qo'yadi. Asl nusxa va tarjima tillari frazeologizmlarining tabiatini qiyosiy o'rgangan holda, ular orasidagi mazmuniy–uslubiy muvofiqlik holatlarini aniqlash va tarjima jarayonida ularning birini

ikkinchisi vositasida talqin etish yo‘l va imkoniyatlarini belgilash to‘laqonli tarjima yaratish uchun zamin hozirlaydi. Tarjima tilida tanlangan muayyan frazeologik birlikning asl nusxa tarkibida uchragan frazeologizmga ma’no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos kelishi yoki kelmasligini ilmiy–matniy tahlil asosidagina aniqlash mumkin.

XULOSA

Mazkur bitiruv malakaviy ish ustida olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz va mavzu yuzasidan to'plagan ma'lumotlarga asoslanib quyidagi umumiy xulosalarga keldik:

Mazkur bitiruv malakaviy ish orqali ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birikmalar, ya'ni frazali fe'llar va idiomalarning paydo bo'lish usullari va ularning o'zbek tilidagi muqobillarini tadqiq etish usullari mavzusiga ilmiy jihatdan yondashdik, uning tarixi haqida bir qator ma'lumotlar keltirdik va bu mavzuni qadimiy tarixga ega ekanligini bilib oldik. Shu bilan birga frazali fe'llar va idiomalarning paydo bo'lish yo'llari ancha muammoli bo'lib uning hali ochilmagan qirralari bor. Biz ularni o'z ilmiy qarashlarimizdan kelib chiqqan holda o'rgandik.

Hozirgi zamon tilshunosligida frazeologik birikmalar yozuvchilarning asarlarida va oratorlarning nutqida stilistik vosita sifatida juda keng qo'llanilmoqda. Chunki u fikrni aniq, to'liq, obrazli ifodalaydi, shuningdek, nutqqa ifodalilik, emotsionallik va ko'tarinkilik berish uchun xizmat qiladi.

Frazali fe'llar va idiomalarning paydo bo'lish yo'llarini ingliz tili va o'zbek tilida qiyoslar ekanmiz, uning o'ziga xos xususiyatlarini, unda uchraydigan o'xshash va noo'xshash tomonlarini o'rgandik. Bu esa biz bo'lajak tarjimonlar va o'qituvchilar uchun buni bilishimiz muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biridir.

Har ikkala til o'zining leksik, frazeologik, grammatik strukturasi va xususiyatlariga ega bo'lganligi tufayli ingliz va o'zbek tillarida o'zaro bir qancha farqlar mavjud. Ushbu farqlar esa chet tilini o'rganayotgan o'quvchiga qiyinchliklar tug'diradi. Tarjimonlar va o'qituvchilar esa ushbu muammolarni bartaraf etishi lozim.

Bitiruv malakaviy ishda ingliz va o'zbek tilidagi frazeologik birikmalarni tahlil qilishga harakat qildik va undagi nomutonsibliklar mavjudligini ta'kidlab, bu tillarda bir-biriga mos tushuvchi frazeologizmlar, maqollar, matallar, frazali fe'llar, so'z birikmalari va idiomalarni ko'rsatib o'tdik. Ushbu bitiruv malakaviy ishning

maqsadidan kelib chiqqan holda frazeologik birikmalarning paydo bo'lish yo'llarini va ularning o'zbek tilidagi muqobillarini tadqiq etish usullari texnologiyasi bo'yicha metodik ko'rsatmalar keltirdik. O'zbek va ingliz tilidagi frazeologizmlar va iboralarni o'quvchilar tushunishiga va ularni farqlashiga yordam beruvchi birikmalarni berib o'tdik. Frazeologik birikmalarni o'rganishda mashqlar tizimi muhim ahamiyatga ega. Frazeologik birikmalarni o'rganishda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda turli xil nutq mashqlardan foydalanamiz.

Ingliz tilida frazali fe'llar va idioma kabi frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida tarjimonda kuchli bilim va ko'nikmalar talab etiladi. Shu bois tarjimon, avvalo, tarjima jarayonidan oldin frazali fe'llar, idiomalar va boshqa frazeologik birikmalar mavzularini chuqur o'rganib, keyin tarjima jarayoniga kirishsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, tarjima jarayonida frazali fe'llar, maqollar, matallar, idiomalar kabi frazeologik birikmalarni to'liq ekvivalentlarini berib, ulardan o'rinli foydalana bilish tarjimonning asl mahoratini ko'rsatib beradi. Tarjima qilingan asarlar, ma'lumotlar tushunarli va ularning asl ma'no-mazmuni yoritib berilishi ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Toshkent, 1996, 235–bet.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent, 1999, 14–15–betlar
3. Aznaurova.S va b. Translation theory and practice T.1989
4. Bally, Ch. Precis de stylistique. – Geneve, 1905.–320 p.
5. Karamatova K. M, Karamatov.H.S. Provovorbs, Maqollar, Poslovitsi. T–“Mehnat”–2000. 398b.
6. Musayev.Q. Tarjima nazariyasi asoslari .T 2005.
7. Ochilov.E Tarjima nazariyasi va amaliyoti T.2012
8. G‘ofurov.I, Mo‘minov.O, Qambarov,N. Tarjima nazariyasi.”Tafakkur .Bo‘stoni” T–2012.215b.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. 2–jild Moskva 1981.451–b
10. O‘zbek xalq maqollari. Toshkent. 1978,
11. Salomov G‘. “Tarjima nazariyasiga kirish”.T:”O‘qituvchi”. 1983.117–b
12. Salomov,G‘. Til va Tarjima. T–1966 259–b.
13. Salomov.G. Tarjima nazariyasi asoslari. T–O‘qituvchi– 1983, 116–121–betlar.
14. Salomov.G‘ Maqol va idiomalar tarjimasi. T., 1961,
15. Yuldoshev B. O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti.– Samarqand: SamDU, 2007.– 108 b.
16. Байрамова Л.К. Фразеология и перевод/ Фразеология и синтаксис. – Казань.1982. – 42с
17. Бушуй А.М. библиографический указатель литературы по вопросам фразеологии. Вып. ИВ–В. Самарканд, 1976–1979.
18. Виноградов.В.В. Основание понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. Ленинград, 1946 г.с.61
19. Кунин А.В. Английская фразеология (теоретический курс). – М.: Издательство «Высшая школа», 1970. – 344 с
20. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. –

М.1972. – 466с.

21. Ларин Б.А. Очерки по фразеологии // Очерки по лексикологии, фразеологии и стилистике: Уч. зап. /ЛГУ. — Л., 1956. — № 198. – 201–202 стр

22. Поливанов. Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов. VI, – Л., 1928. – стр.60.

23. Попов Р.Н. Методы исследования фразеологического состава языка. – М., 1996.

24. Ройзензон Л.И., Бушуй А.М., Ройзензон С.И. Библиографический указатель литературы по вопросам фразеологии. Вып. ИИИ., Самарканд, 1974;

25. Смирницкий А.И. Синтаксис английского языка.– М.: ИИЛ, 1957. ИИЛ, – стр 53

26. Фёдоров.А.В. “ Введение в теорно перевода». М.1958, стр. 168

Amaliy misollar uchun foydalanilgan manba’lar

1. Xalq so‘zi gazetasi 2017, 21– aprel, 2b

Elektron manba’lar

2. uza. Uz\ uz\ tourism\ 2015

3. [http: \ www. translator tips. Com](http://www.translator tips. Com)

4. [http: \ www. translation zone. Com\ Translator tips.com](http://www.translation zone. Com\ Translator tips.com)

5. [http: \ www.translate.ru](http://www.translate.ru)

6. <http://www.uz–translation.net>

7. <http://www.ziyonet.uz>